

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА
ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

Тошкент тўқимачилик ва ёнгил саноат институти

«Пахтани дастлабки ишилаш» кафедраси

«УСКУНАЛАР ЭКСПЛУАТАЦИЯСИ ВА ТАЪМИРЛАШ»

фанидан (ПСТ факультети бакалаврларига) ўтиладиган

лаборатория машғулотлари учун

O'QUV QO'LLANMA

ТОШКЕНТ –2009

ANNOTASIYA

Ushbu o'quv qo'llamma "Uskunalarini ekpluatasiya qilish va ta'mirlash" fanini paxta sanoati o'skunalarini ishlab chiqarish jaroyonlari davrida ulardan uzlusiz va sifatlari foydalanish, ishdan chiqqan xollarda tez va unumli qayta tiklash yo'llarini o'rgatadi. Paxta tozalash mashinalari va jixozlarini loyixalash, tayyorlashda uskunalar ekspluatasiyasi va ta'mirlash, mashinalarning ish sifatini oshirishda muhim o'rinni tutadi

O'quv qo'llamma "To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi bakalavr talabalari va paxta tozalash sanoatining muxandis-texnik xodimlari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: «Paxtani daslabki ishlash» kafedrasini

katta o'qitiuvchi,

X.A. Gatayev,

t.f.n., dotsent,

H.N.Pardayev

Taqrizchilar: "OSBORN TEXTILE"
xorijiy korxonasi bosh
direktori

R.E.Normatov

«Paxtani dastlabki ishlash» kafedrasini t.f.n.,
dotsent

A.Q.Usvonqulov

*TTESI ilmiy-uslubiy kengashida muhokama qilingan
va tasdiqlangan. Bayonnomma № "___" ____ 2011y.*

KIRISH

Respublikamiz mustaqilligining iqtisodiy poydevorlaridan biri bo'lgan paxta tozalash korxonalarini zamonaviy texnika va texnologiya bilan qurollantirish va korxonalarda foydalinalayotgan uskunalarini sifatli ta'mirlash va ulardan unumli foydalanish korxonalarining ishlab-chiqarish rejalarini bajarishda, mashinalarning ishlash samaradorligini oshirishda hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilashda katta imkoniyatlar yaratadi.

Ta'mirlashni zamonaviy usullarni tashkil qilish va rejalashtirish, yangi texnika va texnologiyani yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, texnologik mashinalarning ishonchlilagini va ishlash davrini oshiradi.

Talabalarga hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ishlab chiqarishga quyilayoTJan talablar - ishlab chiqarish samaradorligini va mahsulot sifatini oshirish maxsadida, zamonaviy ta'mirlash usullarini o'rgatishdan iboratdir.

“Uskunalarini ekpluatasiya qilish va ta'mirlash” fanini o'rganishda talabalar oldingi kurslarda o'rgangan barcha mutaxasislik fanlardan olgan bilimlaridan foydalanadilar.

Mashinalar ishonchliligi ko'rsatkichlari, ularni oshirish yo'llari, mashina qismlarining yeyilish jaroyonlari, ularning ishdan chiqgan xolatlarida gaz alangasi va elektr yoyi yordamida payvandalb qoplash bilan tiklash usullarini, detallarni slesar-mexanik va kavsharlab tiklash usullarini, paxta tozalash sanoati korxonalari texnologik jihozlarini montaj qilish va ularni sozlash usullarini ***bilishi*** lozim.

Paxta tozalash korxonalarining asosiy uskunalarini quritish qurilmalari, paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash uskunalarini, arraliva valikli jinlash uskunalarini, linterlash uskunalarini, arrali jin va linter arralarini tayyorlash bo'limlaridagi barcha dasgoxlarni, tolali maxsulotlarni tozalash uskunalarini va tolali maxsulotlarni toylash qurilmalarini ishlata bilish ***ko'nikmalariga*** ega bo'lishi kerak.

Paxta tozalash korxonasida uskunalardan foydalanish davrida ularning bo'lak va qismlari ishdan chiqgan vaqtda tannarxi past va tez amalga oshirish mumkin bo'lgan tiklash usullarini tanlay olish, xamda uskunalarda vujudga keladigan nosozliklarni aniqlay olish, tezda bartaraf eta olish va barcha texnologik uskunalarini boshqarish ***malakalariga*** ega bo'lishi kerak.

1-bob. Uskunalarning ishonchliligi va chidamliligi

1.1. Ishonchlilik va chidamlilik to'g'risidagi umumiylumotlar.

Paxta tozalash sanoati korxonalarining uskunalari murakkab mashina va mexanizmlardan tashkil topgan bo'lib, ular yordamida xo'jaliklardan keltirilgan paxta xom-ashyosini qabul qilib olish, ularni omborlarga va g'aram maydonchalariga joylashtirish, g'aram maydonchalaridan ishlab chiqarish bo'limlariga tashib keltirish, paxtani kondision namlikgacha quritish, ularni iflos aralashmalardan tozalash, chigitli paxta chigitidan tolasini va lintini ajratib olish, paxta tolasini va lintini tozalash, shibbalash va presslash, urug'lik va texnik chigitlarni omborlarga tashish vazifalarini bajarishdan iboratdir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan texnologik operasiyalarini amalga oshirish asasan mashinalarning texnik xolatiga bog'liq bo'lib, mashinalarning texnik xolati esa o'z navbatida quyidagi ko'rsatkichlar bilan baxolanadilar: ish unumidorligi, ishlab chiqarilgan max sulotning sifati, maxsulot ishlab chiqarishga ketgan elektr-ener giya sarfi, xamda mashinaning uzoq vaqt beto'xtov ishlashi, xom ashyo sarfini iqtisodi, mexanizimi va uzellarining aniqligi, ularning ishqalanishga chidamligi, pishiqligi va boshqalar.

Bu ko'rsatkichlarning xar biri eksplutasiya davrida texnik xujjat larda ko'rsatilagan natijalarga (uskunaning pasporti, texnik shart lari va talablari, andozalari va boshqa) mos bo'lishi kerak.

Uzoq ishlatish natijasida uskunalarning ko'rsatkichlari asta-sekin yomonlashib boradi, bunda asosan ishqalanish, qoldiq deformasiya natijasi, sinish, detal uzel va mexanizmlarining zanglashga uchrashi sabab bo'ladi. Uskunaning texnik xolati yomonlashsa uning ishlash qobiliyati tiklash uchun ta'mirlash zarurdir. Uskunalarning uzoq vaqt ishlashini uning detal uzel va mexanizmlarining mustaxkam va uzoq muddatli ishlashi bilan ta'minlanadi.

Mashinaning sozligi- u mashinaning shunday xolatiki, mashina bunda o'ziga qo'yilgan barcha asosiy va yordamchi texnologik vazifalarni bajara olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Mashinaning nosozliligi - u mashinaning shunday xolatiki, mashina bu xolatda o'ziga qo'yilgan asosiy va yordamchi texnologik vazifalarni bajara olish qobiliyatiga ega bo'lmaydi.

Ishonchlilik- mashina detallari, uzellari va mexanizmlari belgilangan vaqt mobaynida o'ziga qo'yilgan vazifani bajara olish qibiliyatidir. Ishonchlilik bu mashinanig uzoq vaqt beto'xtov ishlash qibiliyatidir. Mashinalarning ishonchliligi- bu mashina detal va uzellarini uzoq vaqt beto'xtov ishlash va saqlanish qobiliyatini, ta'mirlashga yaroqlilagini va chidamliliklarini ta'minlab beruvchi ko'rsatkichdir.

Beto'xtov ishlash qobiliyati- ma'lum bir vaqt ichida yoki ma'lum bir ishni bajarishda sababsiz to'xtab qolmay ishlay olish qibiliyatidir. Bu ko'rsatkich paxta tozalash korxonalarining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, bunda korxonaning bir sutka yoki bir smenada ishlab chiqarilayoTJan mahsulot miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi va bir mashinaning to'xtab qolishi boshqa mashinalarning turib qolishiga sabab bo'ladi. Buning oqibatida korxonaning kunlik, oylik ishlab chiqarish rejalarini bajarilmasligiga va korxona ishchi-xizmachilarini ishsiz turib qolishiga olib keladi.

To'xtab qolish- mashina, uzel va detallar ish faoliyatining buzilishidir yoki mashinalarning texnologik funksiyalarini bajarish qobiliyatini yo'qotishidir.

Uskuna tuxtamasdan ishlash mumkin (ta'mirlash uchun majburiy tuxtashdan tashqari) yoki uning texnik xolatiga qarib tanaffus bilan to'xtatish. Ishlatib ko'rish to'xtamasdan va ishlatib ko'rish vaqtি birligi yoki bajarilgan ishning hajmi bilan belgilanadi.

Ishlatib ko'rish boshlang'ich ishlatishdan (eksplutasiya) birinchi to'xtab qolguncha , tiklanayoTJan uskunalar uchun to'xtab qolish oralig'ida , ya'ni uni ishlatib ko'rish to'xtab qolgandan so'ng tiklanishining oxirgacha ishslash xolatini tiklanishi keyingi to'xtab qolgan gacha davom etadi.

Uskunaning ishonchlilik asosiy ko'rsatkichlari uning **tayyorlik koeffisenti (K_t)** va texnik foydalanish koeffisiEHitidan ($K_{t,n}$) tashkil topadi. Tayyorlik koeffisenti bu extimollikni ta'riflab beradi, ya'ni jarayoni rejali tiklash oralig'ida mashinaning asossiz ishslash xolatida bo'lisdigidir, va qo'yidagi tenglama orqali aniqlanadi.

$$K_t = T/(T+T_v)$$

bu yerda T - puxta ishslash vaqtি , soat
 T_v -tiklash vaqtি, soat

Mashinaning xech buzilmasdan puxta ishslashga sarf bo'lgan qo'shma vaqtidan tashkil topgan tuxtovsiz ishslash vaqtি, **texnik foydalanish koeffisenti** ulushini ko'rsatadi, va uning tiklashni va proflaktika (T_p) uchun keTJan vaqtি qo'yidagicha aniqlanadi:

$$K_{t,n} = T/(T + T_v + T_p)$$

$K_{t,n}$ -bu xozirgi vaqtda mashina ishlab turganligini isbotlovchi , ta'mirda emasligini xarakterlovchi- hisobotlovchi koeffisent.

Bu ko'rsatkichlar qancha yuqori bo'lsa , shuncha mashinaning ishonchligini yuqori baxolanadi.

To'xtab qolishning tafsifi. Mashinaning ishlamay qolishi uning elementlarining to'xtab qolishidan kelib chiqadi. To'xtab qolishining umumiyligi tushunchasi deganda mashina yoki uning organlarining kutilmaganda to'xtab qolishiga aytildi. 1-jaDValda mashina yoki uning elementlarining turli sabablarga ko'ra to'xtab qolishi klassifikasiyasi keltirilgan.

To'xtab qolishning ko'p vaqtি aylanivchi yuzalarning ishdan chiqishi va maslamalarning sinishiga boqliqdir.

Mashinalarning to'xtab qolishi- bu mashina detallari va uzellarini mashina qo'yilgan texnologik va texnik talablarni buzilishi, mashinalar ishchi qismlari yuzasidagi ishqalanish kuchi hisobiga arrachali, arrali va cho'tkali barabanlarning yeyilishi, mashinalar tez aylanuvchi qismlari tayanch nuqtalarining yeyilishi, tayanch podshipniklarining ishdan chiqishi, ekspulutasiya davrida arra tishlarining yeyilishi va sinishi, tola ajratish mashinasi ishchi kamerasida xom-ashyo valigining tigilib qolishi va boshqalar sabab bo'ladi.

Mashinalarning to'xtab qolishi ***kelib chiqishiga ko'rta uch turga*** bo'linadi, ular konstruksion, texnologik va ekspluatasion.

1-jadval

1	To'xtab qolish tartiblari	Normal xolda. Anormal xolda.
2	To'xtab qolish sabablari	Tuzilishi bo'yicha.(konstruksiya) Texnologik bo'yicha. Ekspulatasiya bo'yicha.
3	To'xtab qolish xarakteri	Doimiy. Birdaniga.
4	To'xtab qolishining mashina ning ishlash qabiliyatiga ta'sir darajasi	Qisman. To'liqligicha. Majburiy to'xtash. Mustaqil to'xtash.
5	To'xtab qolishning oqibati	Xavfli , xavsiz, og'ir, EHgil.
6	To'xtab qolishni bartaraf etish imkoniyatlari	Bartaraf etsa bo'ladigan, Bartaraf etib bo'lmaydigan
7	To'xtab qolishni bartaraf etish uslublari	Detalni almashtirish, sozlash bilan . Tozalash va may lash bilan.
8	To'xtab qolishning paydo bo'lishi takrori (chastatasi)	Bir marta. Doimiy qaytarilib turadigan.
9	To'xtab qolishi tabiatি	Tabiy to'xtab qolish . Tushinib bo'lmas to'xtab qolish .
10	To'xtab qolish davri (vaqt)	Mashinani tekshirib ko'rilyoTJan vaqtida. Normal ishlatish vaqtida. Ishlatishning yakuniy vaqtida.

Konstruksion to'xtab qolish- mashinalarni loyixalash paytdagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar oqibatida kelib chiqadiva mashinalarning ishonchlilagini pasaytiradi. Mashinalarning mustahkamlariga qilingan hisob-kitoblarni noaniqligi, metall turlarini to'g'ri tanlanmaganligi, ishqalanuvchi detal va uzellarni germetik emasligi, mashina uzellarini to'g'ri yig'ilmaganligi, moylash materiallarini to'g'ri tanlanmaganligi va bir-biriga tegib aylanuvchi detallarga moylash materiallarini rasional yetib bormaslik oqibatida konstruksion to'xtab qolishlir kelib chiqadi.

Texnologik to'xtab qolish- mashina uzellari va detallarini noaniq tayyorlanishi, mashina detallarini tayyorlash va tiklash texnologiyalariga rioya qilmaslik va ularni yig'ish va sozlash paytida yo'l qo'yilgan xatoliklar oqibatida kelib chiqadi.

Ekspluatasion to'xtab qolish- ekspluatasiya davrida texnika qoidalariga rioya qilmaslik, xizmat ko'rsatuvchi shaxslarning professional tayyorgarligini pastligi, yetarli emasligi, o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatilmasisligi, mashinalarning sifatsiz ta'mirlanishi hamda mashinalarning manaviy va jimsoniy eskirishi oqibatida kelib chiqadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan konstruksion, texnologik va ekspulatasion to'xtab qolishlar ichida paxta tozalash korxonalari ichida eng ko'p tarqalgan to'xtab qolish bu ekspluatasion to'xtab qolishdir.

Saqlanish qobiliyati- bu mashinalarni tashishda, uzoq muddat saqlashda va ekspluatasiya davrida texnik normativ xujjalarda ko'rsatilgan ekspluatasion ko'rsatkichlarini saqlab qolish xususiyatidir. (remontoligodnost).


Ta'mirga yaroqlilik- ishonchlilikning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, texnik obyektni ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish ishlari bilan ifodalanadi va obyektni qayta ta'mirlashga ketjan material va pul sarflari bilan baxolanadi.

1.2. .Ekspluatasiya davridagi uskunalarining texnik xolatini aniqlash

Obyektning (mashina, mexanizim va uzel) texnik xolatini struktura ko'rsatkichlarining miqdoriy belgilari bilan boholanadi.

Tuzilishi(strukturasi) ko'rsatkichlari- bu fizik miqdorining ko'rsatkichi, masalan: **geometrik o'lchamalari**(chiziqli, yuza, xajmi), **mexanik** (bosim, aylanish tezligi, tebranish amilitudasi, tortish kuchi), **akustik** (shov qin darajasi), **termik** (ishqalanish xarorati), **elektirik**(tok, kuchlanishi).

Tuzilish ko'rsatkichlari qo'yidagicha bo'ladi (1-rasm): normal (S_0), belgilangan (S_d) va oxirgi (S_{np}).



1.1-rasm. Struktura o'zgarish ko'rsatkichining yeyilishga bog'liqlik grafigi

Tuzilishi ko'rsatkichlarining nominal qiymati boshlang'ich bo'lib, yangi maxsulotning (ob'kt) ko'rsatkichlariga mos bo'ladi. Tuzilish ko'rsatkichlarining belgilangan qiymati nosozlikning chegarasi xisoblanadi. Belgilangan qiymatning ko'rsatkichlari obyekt ko'rsatkichlarining nosozlik belgisi bo'lib hisoblanadi, ishlab turgan bo'lsa ham yoki ta'mirlashgacha ishlash imkonii bo'lsa ham , lekin ekspluatasiya natijalari pas ko'rsatkichlariga ega bo'lsa ham obyektning qolgan ko'rsatkichlari (I.II.III) 1- rasm da ko'rinish turibdi.

Tuzilishi ko'rsatkichlarining struktura qiymatining chegarasi obyektning ekspluatasiya ko'rsatkichlarining pasayishiga bog'liq yoki shunday bo'ladiki , mashinaning keungi ekspluatasiyasi texnik va iqtisodiy jixatdan foydadan xoli , hamda mashinaning bir yoki bir nechta elementlari (detallari) ishga yaroqsiz bo'lgan xolda .

Ham, buzilmasdan ishlashi birdaniga yoki asta- sekin bo'lishi mumkin. Masalan asta- sekin buzilishi ko'pincha ishqalanuvchi detallar hisobiga bo'lsa, birdaniga buzilishi esa , detallarda mikrodarz asosida charchag'i yig'ilishi natijasida sodir bo'ladi.

2-jaDValda mashinada foydalaniladigan umumiy detallar va uzellarning ko'p uchraydigan buzilish sabablari keltirilgan.

2- jaDVal

Detal va uzellar	Bir xil buzilishlarning xarakteri va sabablari.	
	doimo	birdaniga
Vallar(o'qlar)	Ishqalanuvchi saapfa va bo'g'in yuzalarining yemirilishi; egilishi.	Charchashdan yoki ko'p ishlash natijasida sinish.
Sirg'aluvchan podshipniklar	Ishkaluvchan yuzaning yemirilishi.	qotib qolish; antifriksion qo'shmaning erishi.
Tebranuvchan podshipniklar	Ezilishi va ishdan chiqishi; sharik va roliklarning hamda ishchi yuzasining yemirilishi.	Shariklar qatib qo'lishi; kolsa va shariklarining sinishi.
Tishli g'ildiraklar	Tishlarning ezilishi va yemirilishi; ishdan chiqishi.	Tishlarning sinishi; tiqilib qolishi.
Shlisalar va shponkalar.	Ishchi yuzalarining ezilishi va yemirilishi.	Sinishi.
Rezbali qo'shilish joyi.	Katirilgan joy bo'sha gan.	Rezbaning yedirilishi; boltlarning uzi lishi.
Shlangalar, yog' o't kazuvchi quvurlar	Ezilishi va tiqilishi.	Tiqilish va uzilish.

Mashina va elementlarning umumiy texnik xolatini aniqlashning ayrim xollarini ko'rib chiqamiz .

Mashinaning tashqi xolatini ko'rish natijasida : ayrim detal va uzellarning ifloslanganinin , unda shikaslanishining bor- yo'qligini, ustni qatlam himoyasi buzilmaganligini , himoya qatlaming butligi , yog'lagi tizimining ishlashi va boshqa nosozliklar kiradi.

Elektr quvvatini istyemoli bo'yicha texnik xolatini tekshirish .

Bu ishlab chiqarish sharoitida mashinining umumiy texnik xolati foy dalanish imkoniyati bor deb hisoblanadi. Haqiqiy elektro energiya sarfini korxonada o'rnatilgan nominal quvvat bilan solishtiriladi hamda mashinaning texnik xolati haqida xulosa beriladi. Mashinaning mexanizim va uzeli teminiy sarf qilayotJan g'uvvatni bilish uchun uni o'chirish usuli bilan aniqlanadi.

Uskunaning umumiy texnik xolatini aniqlash uchun uning o'z- o'zini to'xtatish vaqt va boshlang'ich tez ishlash vaqt bilan aniqlanadi.

O'z- o'zini to'xtatish vaqt. (boshlang'ich tez ishlash vaqt)- bu privod ni uchirgandan so'ng , mashinaning nagruzkasiz yurishiga yakuniy to'xtatish uchun keTJan vaqt. O'z-o'zini to'xtatish vaqt qancha ko'p bo'lsa shuncha mexanik yo'qotish kam bo'ladi, ya'ni elektr energiya sarfi ham kam bo'ladi.

Mashinalarning soz uzellari tashqaridan issiq havo yuborilmasa 40° - 50° S gacha qiziydi. Detallarning noto'g'ri yig'ilishi, qiyshayishi , tirqish kamayishi, katta yuklash amalga oshirilsa, yaxshi yog'langanmasa yuqori darajali qizish paydo bo'ladi. Mashina va detallarning ishlashini kuzatishga qarab ularning tirqish chegarasini bilish kerak . Bu esa ularning ishlashi mumkinligi haqida xulosa chiqarishga olib keladi.

Val- podshipnik juftliklari misolida tirqishning chegaraviy ko'r satkichlarini ko'rib chiqamiz. Bu juftliklar ishlashi natijasida podshipnik va val doimo yedirilib boradi, shuning hisobiga ularning orasidagi tirqish kengayib boradi, bu esa ularning ishslash qobiliyatini kamaytiradi.

Suyuqli ishqalanishining ishslash qobiliyatining pasayishi, ishqalanishi tirqishida bo'lgan yog' qatlamining yuzalarni ajratish qobiliyati pasayishi natijasida bo'ladi .Shunday vaqt bo'ladiki , qachonki yog'qatlamining nesumqaya qabiliyati yuqolaboshlaydi. Bu xolat, shunday vaqtda bo'ladiki, ya'ni tirqishlarining ko'rsatkichi qo'yidagi tenglama orqali topilgan natijaga yetJanda.

$$\delta_{max} = \delta_o^2 / (4\Delta),$$

bu yerda δ_o - boshlang'ich (konstruktivnyi) tiqish, mkm;

Δ - ishlangan val va podshipnikning notekislik balandligini yig'indisi (toblanmagan detallarga $\Delta = 0,3$ - yangi detallarning notekisligidan; tablanganga $\Delta = 0,15 \dots 0,2$).

Juftliklarda yog qatlamiining ajratish qobiliyati chegaralangan ishqalanish bo'lganda ular materiallarining chegaraviy xolaTJa qarab aniqlanadi. Bu xolatda ishqalanish natijasida xosil bo'ladigan tirqishining chegaraviy ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi.


$$\delta_{max} = \delta_o \varsigma_t^2 / \rho_{sr}^2$$

bu yerda ς_t - podshibnik materialarning erish chegarasi, MPa;

ρ_{sr} - val va podshipnik o'rtasiga o'rtacha bosim, MPa.

Bu ko'rsatkichni taxminan qo'ydagicha qabul qilish mumkin
 $\delta_{max} \approx 2,25 \delta_o$

Mashina va uning elemintlarining texnik xolatini aniqlash va baholash jarayonini diagnostika deyiladi (diagnostirovaniye) , natijasini esa- diagnoz deyiladi.Integral diagnozini aniqlash uchun konnret nosozligini aniqlamasdan mashinaning umumiyl teknik xolatini aniqlanadi.



1.2-rasm. Texnik xolatni aniqlashning ayrim turlari:

a,b-elektromagnit usuli (10 mm gacha chuqurlikda), v-lyuminissient usuli.

1.3. Uskuna detallarining yejilishi va ularning yemirilishiga chidamliligi

Metal va qorishmalarni tashqi muhitning ximik va elektr-ximik ta'siri natijasida buzilish jarayoniga yemirilish deb ataladi. Yemirilish natijasida metallarni ishlash qobiliyatini yo'qolishi natijasida xalq xo'jaligi yiliga juda katta zarar ko'rmoqda.

Paxta tozalash sanoatining qator mashina va mexanizmlari paxtani qabul qilib oluvchi va g'aram maydonchalariga uzatuvchi KLP va XPP rusumli lentali transportyorlar chigitli paxtani g'aramdan buzib ishlab chiqarishga uzatuvchi RBD va RP rusumli mexanizasiya vositalarini, ochiq havoda yomg'ir va qor ostida ishlashi, paxtani tashuvchi CC-15A rusumli separatorlar, paxta tarkibidagi ortiqcha namlikni chiqarish uchun ishlatiladigan 2СБ-10, 2СБО rusumli quritish barabanlarini, lentali va vintli konveyerlarni ochiq omborlarda, paxtani tozalash, jinlash, tola tozalash va linterlash mashinalarining chang, isitilmaydigan xonalarda ekspulatasiya qilinishi mashinalarning aksariyat detallarini yemirilishiga va buning natijasida mashinalar ishlash qobiliyatlarining kamayishiga yoki butunlay ishdan chiqishiga olib keladi.

Yemirilish avval sarg'ish, so'ngra esa och-jigarrang va ma'lum muddatdan so'ng esa to'q jigarrang rangdag'i plyonka hosil qilib detallning bir qismini yoki butunlay qoplab oladi. Vaqt o'tishi bilan metalni qoplab olgan plyonka metal ichkarisiga kira boshlaydi va metallarni buzilishga yoki uni butunlay ishdan chiqaradi.

Metallarning yemirilish jarayoniga tashhi muxitning (havoning namligi, xarorati, bosimi) ta'siri sezilarli bo'ladi. Bundan tashqari metallarning yemirilishiga ularni tayyorlashda va ishlov berishdagi kamchiliklar, metalning fizik-mexanik xususiyatlari xam ta'sir qiladi. Metallar yemirilishning ikki turi mavjud bo'lib, bular ***ichki*** va ***tashqi*** yemirilish turlariga bo'linadi.

Ichki yemirilish - metallarning fizik-mexanik hususiyatlari ta'sirida yemirilishiga aytildi. Bularga quyidagilarni keltirish mumkin: metal tarkibiga boshqa materiallarning qo'shib ketishi va birikishi; o'zgaruvchan va o'zgarmas yuklanish, plastik deformasiya, qoldiq yuklanish ta'sirida ichki yuklanishni kelib chiqishi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan faktorlar ta'sirida metallar yuzasidagi yemirilish jarayoni tezalashadi. Ichki yuklanish metal panjaralari tuzilishiga ta'sir etib yemirilishni tezlashishiga olib keladi.

Tashqi yemirilish- tashqi muhitning harorati, ximik tarkibi, konsentirasiyasi, va bosimi ta'sir etib, metallarning yemirilish tezligiga sezirarli ta'sir ko'rsatadi. Yemirishning dastlabki bosqichida atmosfera bosimi va harorati metalning yuzasiga ta'sir etib, vaqt o'tishi bilan sekin-asta u metallning yemirilishini tezlatadi va butunlay ishdan chiqishiga olib keladi.

Yemirilish tezligiga metalga beriladi Jan ishloving sifati ham katta ta'sir qiladi. Metalning yuzasiga yuqori texnik ishlov berilib, yuzasidagi g'adir-budirlik kamaytirilsa, metal yuzasida yemirilishga chidamlı himoya plyonkasi hosil bo'ladi va metallni yemirilishga chidamliligi ortadi. Barcha metal va qorishmalarning yemirilishga bardoshlilik shkalalari mavjud.

Topshiriq va nazorat savollari

1. Uskuna qismlarining ishonchliligi.
2. Uskuna nosozligi deb nimaga aytildi?
3. Uskuna sozligi deb nimaga aytildi?
4. Uskunalarning betuxtov ishslash kobiliyati deb nimaga aytildi?
5. Tuxtab kolish deb nimaga aytildi?
6. Tuxtab kolish xodisasining turlanishini ayting?
7. Uskunalarning texnik xolatini kanday usullarda aniklanadi?
8. Uskunalarning saklanishga yarokliligi deb nimaga aytildi?
9. Uskunalarning ta'mirlashga yaroklilagini izoxlang?

2-bob. Mashina qismlarida ishqalanish va yejilish.

2.1. Ishqalanish to'g'risida umumiylar va ishqalanish turlari.

Ishqalanish – bu ikki bir-biriga nisbatan xarakatlanayoTJan yuzalarning siljishiga qarshilik qilish xodisasidir.

Bir biriga nisbatan xarakati turiga karab **ishkalanish** kuydagicha buladi:

- 1. Sirpanib ishkalanish (val - sirpanib ishlovchi podshipniklar).**
- 2. Dumalab ishkalanish (val - sharikli poduipniklar).**
- 3. Dumalab-sirpnib ishkalanish (val - konusli podshipniklar)**

Ishkalanuvchi yuzalarning yeglanishi buyicha **ishkalanish** kuydagicha turlanadi:

- 1. Ishkalanish (ideal toza ishkalanuvchi yuzalar yeglanmagan xolatdagi ishkalanish).**
- 2. Suyuq yoki gidrodinamik ishkalanish (ishkalanuvchi yuzalar tula suyiklik bilan bir-biridan ajralgan xolatda)**
- 3. Chegaraviy ishkalanish (yuzalar ishonchli yupka yeg katلامи bilan ajralib xarakatlanayeTJan xolatda).**

Ishqalanish jarayonida ishqalanuvchi yuzalaridagi umumiylar ishqalanio' kuchini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$G' = G'_{yu} + F_{chg} + F_{gd}$$

G'- umumiylar ishqalanish kuchi,

G'yu- yog'siz yuzalardagi ishqalanish kuchi,

G'chg- chegaraviy yog'lanish yuzalaridagi ishqalanish kuchi,

G'gd- gidrodinamik yog'lanish yuzalaridagi ishqalanish kuchi.

Dumalab ishlaydigan podshipniklar uchun suyuq yog'lar ishlatilgan xolda **ishqalanish rejimi** ko'rsatkichini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\lambda = \eta \cdot n / P$$

λ- ishqalanuvchi yuzalarning ishqalanish jarayon ko'rsatkichi,

η- yog'ning qayishqoqligi m/s,

n – aylanishlar soni, m/s,

r – ishqalanuvchi yuza birliklariga to'g'ri kelayoTJan bosim , MPa.

Birinchi bo'lib ishqalanish kuchi ishqalanishning mexanik nazariyasiga asosan fransuz fizigi Amonton tomonidan quyidagicha ifodalangan:

$$G' = \mu \cdot N$$

G'-ishqalanish kuchi, N;


μ-ishqalanish kleffisiEHti;

N-normal yuklanish, N:

1785 yili fransuz fizigi Kulon yuqoridagi formulaga ishqalanufchi yuzalardagi zarrachalarning ilashishini xisobga oluvchi o'zgarmas koeffisiEHt kirgizib, quyidagicha

ko'inishga keltirdi:

$$\mathbf{G}' = \mathbf{A} + \mu \cdot \mathbf{N}$$



2.1-rasm. Ishqalanuvchi juftliklarda yog' qatlami va ishqalanish koeffisi EHtining ishqalanish jarayon rejimiga bog'liqlik grafigi.

I-suyuq ishqalanish chegarasi, II-nosuyuq ishqalanish chegarasi.

Ishqalanish kuchini gidrodinimik ishqalanish nazariyasi asosiga suyanib, rus olimi N.P.Petrov quydagicha kurinishini taklif etdi:

$$\mathbf{G}' = \mu \cdot \mathbf{v} \cdot \mathbf{S} / h$$

S - muloqatdagi yuza m, **v** – ishqalanuvchi yuzalarning niSBiy tezligi, m/s, **h** – yog' qatlami qalinligi, mm.

2.2. Yeyilish jarayoni va ularning turlanishi.

Uskunalarning ishonchliligi va uzoq ishlashi ularning yeyilishga qarshiligidagi bog'liqdir. Chunki yeyilish uskuna bo'lak va qismlarining ishdan chiqishiga olib keladi.

Umumiy olganda yeyilishni ikki turga bo'lish mumkin:

Fizik yeyilish- ishqalanufchi yuzalarning asta sekin o'z o'lchamlarini o'zgartirishi bo'lib, uning texnik ko'rsatkichlari mkm, mm, g/mm va boshqalar bilan o'lchanadi.

Fizik yeyilishning iqtisodiy ko'rsatkichini quydagicha ifodalash mumkin:

$$A_f = R / S_1$$

R-ta'mirlashning smeta narxi, **S1**- to'la tiklash narxi.

Ma'naviy yeyilish- uskunalarning ulardan yangi va samarali ishlash ishlaydigan turlari chiqishi natijasida qadrsizlanishidir.


Ma'naviy yeyilishning iqtisodiy ko'rsatkichi quydagicha ifodalanadi:

$$A = S - S_1 / S = 1 - S_1 / S$$

S – uskunaning boshlangich narxi.


Umumiy , ya’ni fizik va ma’naviy yeyilishning iqtisodiy ko’rsatkichini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$A_{um} = 1 - (1 - A_f)(1 - A_m)$$



2.2-rasm. Ishqalanuvchi yuzalarning o’zaro aloqa turlari:
1-mexanik aloqa, 2-molekulyar aloqa.

Muloqatdagi yuzalardagi yeyilish ishqalanish oqibatida xar –xil turda yemirilishi mumkin. Bu yeyilish turlari, yeyilish yuzalari xarakterlari bilan birga tashqi sharoit, yuklanish va sirpanish tezllariga bog’liq xolda amalga oshadi.



2. 3-rasm. Yeyilishning o’sish grafigi

- I - ishqalanuvchi yuzalarning bir-biri bilan moslashish davri.
- II - normal yeyilish davri.
- III - jadal yeyilish davri.

Yeyilishning quyidagi turlari mavjud bo’lib, ularga: **mexanik, malekulyar-mexanik, mexanik-zanglash** turlari kiradi.

Mexanik yeyilish – qattiq zarrachalarning ta’siri, katta plastik deformasiya ta’siri, olovida zarrachalarining sanchilishi yoki kompleks mexanik yeyilish xollari natijasidagi yuzalardagi qatlamlarning jaroxatlanishidir. Shuning uchun mexanik yeyilishni quyidagicha turlash mumkin:

- *abraziy yeyilish;*
- *plastik deformasiya ta’sirida yeyilish;*
- *mo’rt yemirilish natijasida yeyilish .*

Malekulyar-mexanik yeyilish - ishqalanuvchi yuzalardagi ayrim uchaskalarda metallarning molekulyar ilashishi natijasidi vujudgi keladigan yeyilishdir. Bu turdag'i yeyilishda zarrachalar bir yuzadan ikkinchi yuzaga o'tib, yuzalar xarakatiga keskin qarshilik qilish natijasida ikkinchi yuzani jaroxatlab yemira boshlaydi.

Mexanik-zanglash bilan yeyilish – bu turda jarayon yuzalarda mexanik va zanglash (okisleniye) natijasida vujudga keladi.


Yemirilishning turlari: Metallarning yemirilishi kelib chiqishiga ko'ra quyidagi guruxlarga bo'linadi: yemirilishning borish jarayoni bo'yicha elektroximik va ximik turlarga, tashqi ko'rinishi bo'yicha - bir tekis va notekis, yemirishi muhitni bo'yicha-atmosferada, suvda, gazda va xar-xil mexanik xususiyatlar ta'sirida.

Kimyoviy yemirilish. Metallarni elektr tokini o'tkazmaydigan (dielektrik) muhitlarda quruq gazlarda, yoqilg'ilar yonganda ajralib chiquvchi gazlarda, havo hamda suyuq organik moddalar benzin, mazut, smolalar va boshqalar bilan kimyoviy reaksiyaga kirishishi oqibatidagi yemirilishiga metallarning **kimyoviy yemirilishi** deyiladi.

Pechlarda po'latlarning plastikligini oshirish maqsadida qizdirilganda undagi havo kislородining po'lat olish uchun tayyorlangan xom-ashyosiga o'tishi tufayli temir oksidining hosil bo'lishi kimyoviy korroziyaga misoldir. Paxta tozolash korxonalarining toylash bo'limidagi kesonga joylashtirilgan bosh silindrni suv va moy aralashmalari ta'sirida bo'lishi ham bunga misol bo'la oladi. Kimyoviy yemirilishning borish tezligi metallning va muhitning xiliga, temperaturasiga va uning qanday muhit ta'sirida bo'lish vaqtiga ham bog'liq bo'ladi.

Elektrokimyoviy yemirilish. Metallarni elektr tokini o'tkazuvchi muhitlarda (masalan, nam havo, kislotalarni va tuzlarni suvli eritmalari ta'sirida) yemirilishiga elektrokimyoviy yemirilish deyiladi.


ElektrolyJa tushirilgan metall elektrodlarni sim bilan ulasak, galvanik juftlik hosil bo'lib, bunda elektrod potensiali kichik bo'lgani - anod va katta potensialligi esa - katod bo'ladi.



Bu sharoitda anod ionlari elektrolitga o'ta boshlaydi va anod plastinkalari to'la katodga o'tib bo'lgunga qadar jarayon davom etadi. Po'latlarniig strukturasi ferrit va sementit fazalar dan iborat. Bu strukturali po'latni elektrolitga tushirsak, uning har bir faza ioni o'z potentsialiga ega bo'ladi.

2.4-rasm. Galvanik elementning ishlash sxemasi

Chunki ular bir-birlari bilan metall massasi orkali bog'langan. Bu qotishmada mikrogalvanik juftlik hosil bo'lishi natijasida ikki fazali qotishmaning elektrokimeviy yemirilishi sxematik kursatilgan (4-rasm)



2.5-rasm. Ikki fazali qotishmaning elektrokimeviy yemirilishi

oq strelka bilan anod elektronlarini muqobil ravishda katodga o'tishi ko'rsatilgan. Yukoridagi ma'lumotlarga asosan bir fazali qotish-malar ikki fazali qotishmalarga niSBatan korroziyaga chidamli degan hulosaga kelish mumkin.

Aralash yemirilish. Metallarning yuqorida aytib o'tilgan har ikkala xil yemirilishning bir vaqtida bирgalikda borishiga aralash yemirilish deyiladi.

Yuqorida aytib o'TJanimizdek metallar yemirilish xarakteriga kura tekis, notekis, ayrim joylari bo'yicha donalararo va boshqa xillarga bo'lish mumkin. Bularning ichida eng xavflisi donalararo yemirilishdir. Chunki u metall tashqarisidan kurinmaydi. Shuni ham qayd etish joizki, agar buyumlarni g'adir-budirligi qancha kam bo'lsa, bu sirtda, masalan, puxta oksidlarning pardalari elektrolit ta'siridan himoyalaydi. Metallarning korroziyaga chidamliligini ayni muxitdagি sharoitda yemirilish tezligi bilan baholanadi.

Bu sxemada qora uchastka bilan poten siali kat taroq faza (katod), oq uchastka bilan potentsiali kichikroq faza (anod) ko'rsatilgan, qora strelka bilan anod elektron lari ni elektrolitga o'tishi,

Topshiriq va nazarot savollari.

1. Ishkalanuvchi yuzalarning bir biriga niSBatan xarakati buyicha turlanishini aytинг?
2. Ishkalanuvchi yuzalarning bir biriga niSBatan xarakatida yog'lanishi bo'yicha kanday turlari bo'ladi?
3. Ma'naviy eskirish deb nimaga aytildi?
4. Fizik eskirish deb nimaga aytildi?
5. Eskirishning umumiyl iqtisodiy ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?
6. Molekulyar nazariya asosidagi ishqalanish kuchi qanday aniqlanadi?
7. Gidroanalik nazariyasi bo'yicha ishqalanish kuchi.
8. Yeyilish grafigini chizing va izohlang?
10. Yeyilishning qanday turlari bor va izohlang?

3-bob. Mashina xamda qismlarining yeyilishiga ta'sir etuvchi sabablar va ularning oldini olish yo'llari.

3.1. Mashina qismlarini tayyorlashda ishlataladigan materiallaring yeyilishga ta'siri.

Paxta tozalash uskunalari qismlariing yeyilishi ishchi qismlarning qayta ishlanadigan maxsulotlar paxta, tola, chigit va boshqalar xamda podshipnik qismlarining changli muxitdag'i aloqalari oqibati natijasida vujudga keladi.

Uskuna qismlaridagi ishchi yuzalarning yeyilishi juftliklardagi tirkishlarning o'zgarishi,zarbali kuchlanishlarning xosil bo'lishi va uskuna xamda uning qismlarining aniqliklari buzilishiga sabab bo'ladi.

Uskuna qismlaridagi ishqalanishga chidamlilik ular tayyorlangan materiallarni to'g'ri tanglash bilan amalga oshirish mumkin.

Asosan paxta tozalash uskunalari qismlari niSBatan arzon, ko'p ishlataladigan konstruksion materiallar: cho'yanlar, po'latlar, antifriksion materiallar va nometall materiallardan tayyorlanadi.

3.1.1. Cho'yan va undan tayyorlanadigan detallar.

Zamonaviy metallurgiya kombinatlari yirik va murakkab inshoot komplekslaridan iborat bo'lib, cho'yan ishlab chiqarish uchun konlardan keltirilgan temir rudalari, yoqilg'ilar va flyuslardan xom-ashyo sifatida foydalanilib, ularni shixtalar deb ataladi. Temir rudalarda temir oksidlari bilan birga ma'lum miqdorda begona qo'shimchalar (qum, giltuproq va boshqa birikmalar) xam uchraydi. Temir rudalarining ba'zi turlarida temirdan tashqari xrom, nikel, volfram, vanadiy, titan, molibden va metallar xam bo'lib, bunday rudalarni kompleks rudalar deb ataladi. Bunday rudalarni tabiiy legirlangan rudalar deb ulardan olinadigan cho'yanlarni esa tabiiy legirlangan cho'yanlar deyiladi.

Cho'yanlar qanday maqsadlarda ishlatalishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: qayta ishlanadigan, quyma, legirlangan va maxsus cho'yanlar.

Kayta ishlanadigan cho'yanlar. Bu cho'yanlar tarkibida o'rtacha 3,8-4,4% S; 0,3-1,9% Si; 0,2-1,0%Mp;0,15-0,2%Rva0,02-0,07%SBo'ladi. Ularda uglerodning xammasi yoki ko'proq qismi temir bilan kimyoviy birikma temir karbidi xolida, qolgani grafit tarzida bo'ladi. Bu cho'yanlar juda qattiq va mo'rt bo'lib, sanoatda bu cho'yanlarni qayta ishlanib, po'lat olinishi sababli ularni qayta ishlanadigan cho'yanlar deyiladi. Bu cho'yan quymalarining siniq yuzalari oqish tusda bo'lganligi uchun oq cho'yanlar deb xam ataladi. Qayta ishlashdan olinadigan cho'yanlarning 80—90 foizi bu cho'yanlarga to'g'ri keladi.

Quyma cho'yanlar. Bu cho'yanlar tarkibida o'rtacha 3,5-4% S; 3,2-3,6% Si; 1,5% gacha Mp; 0,05-0,45%R va 0,03%S bo'lib, uglerodning ko'p qismi erkin xolda, ya'ni grafit tarzida bo'ladi. Bu cho'yanlarning siniq yuzalari kulrang tusda bo'lganligi uchun kulrang cho'yanlar deb

aytiladi. QoTJanda xajmining kam kirishishi, kesib ishlanishining osonligi, puxtaligining yuqoriligi va boshqa xossalariiga ko'ra ulardan murakkab shaklli va turli o'lchamli quymalar olinadi. Shuning uchun ularni quyma cho'yanlar deyiladi. Metallurgiya kombinatlarida olinayoTJan cho'yanlarning 9-12% quyma cho'yanlarga to'g'ri keladi. Sanoatda bu cho'yanlardan tola va momiq ajratish mashinalarining kolosniklari tayyorlashda foydalaniladi.

Quyma cho'yanlarning quyidagi markalari mavjud: SCh10, SCh12, SCh15, SCh18, SCh20, SCh21, SCh24, SCh25, SChSO, SCh35, SCh40, SCh45.

SCh12 ferrit-perlitli, SCh15 perlit-ferritli va SChSO, SCh35 perlitli cho'yanlar bo'ladi. Bu xil cho'yanlar narxi arzon bo'lib, yaxshi quyma xossalariiga ega, keskichlar bilan yaxshi kesib ishlanadi, shu bilan birga po'laTJa nisbatan ishkalanish koeffisiEHi kichik va yuqori mexanik xossalarga ega.

Legirlangan cho'yanlar. Bu cho'yanlarda odatdag'i elementlardan tashqari ma'lum miqdorda legirlovchi elementlar xrom, nikel, titan, vannadiy molibdin va boshqalar bo'ladi. Legirlovchi elementlar cho'yanlarga zarur mexanik, fizik-kimyoviy xossalalar beradi.

Masalan, xrom cho'yanning qattiqligini, puxtaligini orttirib yeyilishga chidamli qilsa, nikel esa ishlanuvchanligini yaxshilaydi. Bundan tashqari legirlangan cho'chnlar o'ta korroziyabardosh, ishqalanishga chidamli kam yeyiladigan va boshqa mexanik xossalarga ega bo'lib, bunday cho'yanlordan sirpanish podshipniklari va BTulkalar tayyorlanadi.

Maxsus cho'yanlar (ferroqotishmalar). Bu cho'yanlar odatdag'i cho'yanlardan tarkibida Si, Mp ning miqdori ko'pligi bilan farq qiladi. Ularni uch xilga, ya'ni yaltiroq (oyna) cho'yanlarga, ferromarganeslarga va ferrosilisiylarga ajratiladi. Yaltiroq cho'yanlar tarkibida 10-25% Mp va 2% Si bo'ladi. Ferromarganeslar tarkibida 70—75% Mp va 2,5% gacha Si bo'ladi. Ferrosilisiylar tarkibida 19—92% Si bo'ladi.

Maxsus cho'yanlardan po'latlar olishda, temir oksidlardan temirni qaytarishda qaytaruvchilar sifatida, shuningdek, legirlovchilar sifatida foydalilanadi.

Shuni qayd etishxam joizki, cho'yanlarning tuzilishida grafitning qanday shaklda bo'lishiga qarab ular mustaxkamligi yuqori va bolgalanuvchan cho'yanlarga xam ajratiladi. Mustaxkamligi yuqori cho'yanlarni olish uchun cho'yan tarkibiga kerakli miqdorda Si, Mg, Se elementlari qo'shiladi.

Bolgalanuvchan cho'yanlar. Yuqorida qayd etilganidek, qayta ishlanadigan cho'yanlardan olingan quymalar juda qattiqligi va mo'rtligi sababli ulardan juda kamdan-kam xollarda mashinasozlikda (tegimon toshlari, prokat juvalarni e'tiborga olmasak) foydalilanadi. Shu boisdan bu cho'yanlardan olingan quymalar (shestemyalar, porshenlar, yulduzchalar)ga termik ishlov beriladi. Bunda uning tarkibidagi temir karbid (Fe_3C) ferrit va grafitJa parchalanadi. Bunda ajralgan grafit plastinka shaklida bo'lmay, bodroqsimon, shaklsiz, to'pto'p xolda asosiy metall strukturasida tarqalgan bo'ladi. Shu sababli bu cho'yanlarning mexanik xoCCAlari po'lat bilan kulrang cho'yanlar oralig'ida bo'ladi. Shuning uchun xam bu cho'yanlarni shartli ravishda bolg'alanuvchan cho'yanlar deyiladi.

Bolg'alanuvchan cho'yanlarning markalanishi. Bunda cho'yanlarning markalaridagi «KCh» xarflari bolg'alanuvchan cho'yanligini, undan keyingi birinchi ikki raqam cho'zilishdagi o'rtacha mustaxkamligini va keyingi raqam niSBiy cho'ziluvchanligini bildiradi. Masalan, KCh 35—10 markali bolg'alanuvchan cho'yandagi KCh bolg'alanuvchan cho'yanligini, 35 raqam uning cho'zilishdagi mustaxkamligini va keyingi 10 raqam esa uning niSBiy uzayuvchanligini foizda ifodalaydi.

3.1.2. Po'lat va undan tayyorlanadigan detallar.

Po'lat asosiy konstruksion material bo'lib, u cho'yanga nisbatan puxta, plastik, oquvchanlik xususiyatiga ega, payvandlanuvchanlik va kesib ishslash xususiyatiga ega. Mashinasozlikda po'latlarning

solishtirma og'irligining kattaroqligi, korroziyaga tezroq berilishiga qaramay ulardan cho'yanlardek turli shaklli quymalar va prokat maxsulotlar olishda keng foydalaniladi. Bugungi kunda metallurgiya kombinatlarida po'latlarni konventorlarda suyuq cho'yan satxiga kislorod xaydash yo'li bilan, marten va elektr pechlarda olinmoqda. Marten va elektr pechlari yordamida olingan po'latlar tarkibida O₂, N₂ va N₂ gazlari xamda nometall qo'shimchalar bo'lib, ular metallning mexanik, texnologik va boshqa xususiyatlarini pasaytiradi. Po'latlami yuqorida qayd etib o'tilgan xususiyatlarini oshirish maqsadida ular vaakum kameralarda, ulardan inert gazlar o'tkazilib va sintetik shlaklar yordamida tozalanadi.

Mashinasozlikda temir qotishmalari (po'lat va cho'yanlar) korroziyaga beriluvchanligi, zichligining yuqoriligi, temir rudalari narxining ortishiga qaramay asosiy konstruksion materialdir. Lekin mashinalarning ayrim detallari (podshipniklar, BTulkalar, shestemyalar, trubalar va boshqalar) ning ish sharoiti antifriksion, korroziyabardosh va boshqa xossalarga xam ega bo'lishi zarurligi, narxining qimmatligiga qaramay rangli metallar (Si, Al, Mg, Ti va boshqalar) va ularning qotishmalaridan keng foydalanishga undaydi. Quyida sanoatda keng foydalaniladigan rangli metallar qotishmalari xakida ma'lumotlar keltirilgan.

3.1.3. Metallarni tayyorlash.

Materiallarni parma, freza va boshqa shunga o'xhash keskichlar yordamida kesib ishlashda keskichlarning keskirligini uzoq vaqt saqlanishi uchun ular qattiq va puxta, ma'lum miqdordagi qovushoq, korroziyabardosh materiallardan tayyorlanishi kerak bo'ladi. Ayniksa, yuqori mexanik, fizik-kimyoviy xossal materiallarni kesib ishlashda, ish unumдорлиги va sifat ko'rsatkichlarini ko'tarishda bu materiallarga qo'yilgan konstruktiv va geometrik talablarning axamiyati g'oyat katta.

Onson kesib ishlanadigan materiallarni kesib ishlovchi keskichlar uglerodli asbobsozlik U2, U8, U9, U9A, U10A rusumli po'latlardan kam legirlangan 9XS, 13X, XVSG po'latlardan tayyorlansa, kesib ishlanishi qiyin materiallarni kesib ishlashda tezkesar R18, R9, R6M5 va boshqa po'latlardan, qattiq qotishmalar va abraziv materiallardan foydalaniladi. Bundan tashqari detallarni mustaxkamligini oshirishda metall va nometall materiallari kuknlaridan xam foydalaniladi.

Metall va nometall materiallar kukunlaridan turli xil detallar tayyorlash texnologik usuliga kukun metallurgiyasi deyiladi. Bu usulda tayyorlangan detallar (sirlanish podshipniklar, silindrik va konus tishli shestemyalar, keskichlar kallaklariga maxkam o'matiladigan qattiq qotishma plastinkalari va boshqalar) turli xossal bo'lishi bilan birga, bir tomonidan geometrik shakl va o'lchamlari aniq yuza g'adir-budirligi kichik bo'ladi, qimmatbaxo metallar tejaladi, qo'shimcha ishlovlar talab etmaydi, yuqori malakali ishchiga za-ruriyat bo'lmaydi, ish unumi yuqori va boshqa shunga o'xhash ko'rsatkichlarga ega bo'ladi, ikkinchi tomonidan quyma va bosim bilan ishlashda olingan detallardan farqli o'laroq tarkib notekisligi, kirishuv bo'shilig'i, darz ketishlar bo'lmaydi, uchinchi tomonidan an'anaviy usullarda olib bo'lmaydigan o'ta qattiq qotishmalar olinadi. Chunki bunday qotishmalar tarkibida W, Mo, Nb kabi metallarning suyuqlanish temperaturasi juda yuqoridir.

3.1.4. Termik ishlov berish.

Mashinasozlikda po'lat va cho'yanlardan, shuningdek, rangli metall qotishmalaridan tayyorlanadigan ko'pgina detallar va keskichlarning fizik-mexanik va texnologik xossalalarini yaxshilash bilan ekspluatasion ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida ularga termik ishlov beriladi.

Metall va uning qotishmalariga termik ishlov berish uchun ularni ma'lum temperaturagacha qizdirib, shu temperaturada kerakli muddatda saqlab turilgandan keyin xar xil tezlikda sovitiladi.

Bunday ishlov berishda zagotovkalarning kimyoviy tarkibi o'zgarmay qolib, strukturali o'zgarishining xisobiga uning xossalari o'zgaradi.

3.1.5. Kimyoviy-termik ishlov berish.

Ko'pgina detallar (tishli gildiraklar, porshen barmoqlari, chervyaklar, podshipnik roliklari va turli xil o'lchov asboblari va boshqalar) sirt yuzasining qattiqligini oshirish, korroziyabardosh va yeyilishga chidamli qilish maqsadida kimyoviy-termik ishlovlar beriladi. Buning uchun po'lat buyumlarga ma'lum temperaturadagi kimeviy aktiv muxitlarda ishlov beriladi.

Bunda muxit molekulalari dissosiyalanib ajralayoTJan atomlar (masalan, S, N, Al, Cr, Si va boshkalar) buyum sirtiga diffuziyalanib, qattiq eritma yoki kimyoviy birikmalar xosil qilib, qattiklikni oshiradi. Bu usulda buyumlarning sirt yuza qatlami tarkibining o'zgarishi muxit turiga qarab, sementitlash, azotlash, xromlash, alyuminiylash va boshqalar deb yuritiladi.

3.1.6. Antifriksion materiallar xaqida asosiy tushunchalar.

Bu qotishmalar Sn, Pb, Si, Al va boshqa elementlar asosida olinib, sirpanish podshipniklarining val buyniga tegib, ishqalanuvchi yuzalarni (vkladishlarni ish yuzasiga qo'yish uchun) tayyorlanishi ishlatiladigan qotishmalarga **antifriksion materiallar** deyiladi. Bu qotishmalarning suyuqlanish temperaturasi ancha pastligi, yetarli darajada yuqori mexanik xoCCalarga ega bo'lishi, val materiali bilan ishkalanish koeffisiEHta kichikligi, iCCiqlikni yaxshi o'tkazishi, korroziyabardoshligi, o'zida moyni saqlay olishi bilan birga asosi plastik va qovushoq bo'lib, unda tayanch vazifasini o'taydigan bir tekisda joylashgan qattiq birikmalar xam bo'ladi. Bunda podshipnik (vkladish)da aylanuvchi val bo'yning butun sirti bo'yicha ishqalanib va jarayonda yumshoq asos materiali mikroariqchalariga sirt yuzadagi moylar o'tib turadi. Shundagina ulardan tayyorlangan sirpanish podshipnik (vkladish) lari me'yorida ishlaydi. 59-rasmida vkladish bilan valning ishlash sharoitini aks ettiruvchi sxema keltirilgan. Shuni xam qayd etish joizki, qotishmalarning asosi xaddan tashqari yumshoq bo'lmasligi kerak, aks xolda u podshipnikka tushadigan bosim ta'sirida siqib chiqarilishi mumkin. Shuningdek, qattiq brikimlar miqdori xam yetarli darajadan ortiq bo'lmasligi lozim, chunki valning bosimi ta'sirida ortiqcha qattiq birikmalarning bir qismi uvalanib, xosil bo'lgan mayda zarrachalar val bo'yinini tirnab tezroq ishdan chiqaradi.

Yuqorida qayd etilgan talablarga javob beradigan antifriksion materiallarga **babbitlar, bronzalar, latunlar, modifisirlangan kulrang va bolg'alanuvchan cho'yanlar, govakli metallokeramik materiallar, plastmaCCalar, plastifisirlangan yog'och, tekstolit, rezina va boshqalar kiradi**.

Jumladan, qalayli babbitt yaxshi antifriksion material bo'lgani uchun katta nagruzkalar va tezlikda ishlovechi bug' turbinalar, turbo kompreCCorlar podshipnik vkladishlarida keng foydalaniladi. Chunki uning plastik asosi surmani misdag'i va qalaydag'i qattiq eritmasi bo'lib, qattiq birikmada esa Cu₃SB, SnSB lar bo'ladi. Lekin qalay qimmatligi uchun, masalan B83 markadagi qalayning bir qismini R bilan almashtirilib, B83 o'mniga B16 markali babbittdan foydalaniladi. Demak antifriksion materiallarning qay biridan podshipnik (vkladishlar) uchun oqilona foydalanishda valning materialga solishtirma bosimi va aylanish tezligi xamda

material narxi xisobga olinadi. 24-jadvalda asosiy antifriksion materiallarning xili, markasi, qo'llash sharoiti va ishlatalish joylari misol sifatida keltirilgan.

3.1.7. Nometall materiallar.

Mashinasozlikda konstruksion materiallarning asosi metall va ularning qotishmalari bo'lgani bilan nometall materiallardan foydalanish ortib bormoqda. Nometall materiallarning turlari ko'p, lekin sanoatda **plastik maCCalar, rezina, lak, buyoq, yelim, aSBest, karton, shisha, keramika**, moylar va boshqa materiallardan xam keng qo'llaniladi. Ularning puxtaligi, termik va kimyoviy jixatdan chidamliligi, izolyasion, ayniqsa, texnologik va ekspluatasion xoCCalarining yuqoriligi ko'pgina xollarda ulardan metallar o'midagina emas, zarur materiallar sifatida xam foydalanishmi taqozo etadi.

Qadimda odamlar tabiiy nometall materiallardan (marmar, tosh, yog'och va boshqalardan) asosan uylar qurishda foydalanganlar. Sanoat turli tarmoqlarining rivojlanishi, xar xil mashinalar va mexanizmlarning yaratilishi natijasida ular detallari uchun zarur xoCCali materiallarga bo'lgan talab orta boradi. o'z navbatida, davr talabiga javob beradigan, nometall materiallar yaratish borasida olib borilgan izlanishlar yangi-yangi materiallarning yaratilishiga olib keldi. Bu materiallar ichida plastik maCCalar muxim o'rinn tutadi.

Nometall materiallardan foydalanish xajmining kamligiga 15-20 foiz, birinchidan, ularni xar tamonlama chuqur o'rganilmaganligi, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish texnologiyasining zamonaviy talablarga to'la javob bermasligi sabab bo'lgan. Xisob-kitoblarining ko'rsatishicha, masalan, mashina detallari tayyorlashda plastmaCCalardan oqilona foydalanish, katta texnika-iktisodiy samara beradi.

Plastik maCCalar tabiiy va sun'iy xillarga ajratiladi. Tabiylarga sellyuloza, slyuda, aSBest, grafit, paxta, ipak, jun va boshqalar, sun'ylarga polietilan, viskoza, sintetik kauchuk va boshqalar kiradi. Ularning asosi polimerlar bo'ladi.

Polimerlar ko'plab takrorlanuvchi o'zaro kimyoviy bog'langan mono-merlardan iborat bo'lib, xoCCAlari xam turlicha bo'ladi. Ularni tuzilishiga qarab oddiy (ya'ni faqat polimerlardan iborat) va murakkab tarkibli xillarga ajratiladi. Oddiy plastik masalarga: polietilen, polipropilen, organik shisha va boshqalar kiradi. Murakkab tarkiblilarga bog'lovchilardan tashqari to'ldiruvchilar, plastifikatorlar, stabilizatorlar, katalizatorlar, moylovchilar va buyovchi moddalar xam kiradi. Ba'zan bog'lovchilar sifatida polimerlar o'miga bitum, asfalt, sementlardan xam foydalaniladi. To'ldirgichlar plastmaCCalarni fizik-mexanik, kimyoviy va texnologik xoCCalarini yaxshilash bilan kam yeyiladigan qiladi.

3.2. Ishqalanuvchi juftliklarda yuklanish va tezlik rejimlarining yeyilishga ta'siri.

Ishqalanuvchi juftliklarning ishlashini yuzalardagi nisbiy yuklanish r (MPa) va ularning nisbiy siljish tezligi (m/s) xarakterlaydi. Ishqalanuvchi yuzalarining ishlash jarayonida ular mashinalarning ishlash sharoitiga qarab o'zgarib turadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki yuklanish va tezlikning oshishi bilan ishqalanuvchi yuzalardagi yeyilish xam o'sa boradi, ayniqsv yug'lanmagan yuzalarda. Yug'lanmagan yuzalardagi yeyilish jadalligini quyidagicha ifodalash mumkin

$$\varepsilon = \Delta h / \Delta S = c p^m,$$

Δh – mashina qismining chiziqli yeyilishi;

ΔS – ishqalanish yo’li;

C va **m** – material va uning yeyilish xususiyatiga bog’liq koeffisiEHt;

P – ishqalanuvchi yuzalarga ta’sir etayoTJan niSBiy bosim.

NiSBatan past tezlikda **v** va past xaroratda ishlayoTJan ishqalanish yuzalaridagi chiziqli yeyilishni kuyidigicha yozish mumkin

$$\varepsilon = \Delta h / \Delta t = c p v ,$$

t – vaqt, sek.

Yuzalardagi niSBiy tezlik yeyilishga xar xil ta’sir qilib, yog’liq ishqalanishda tezlik o’sishi bilan yeyilish kamayadi, quriq xamda chegaraviy ishqalanishda tezlik oshishi bilan oldin o’sadi va maksimal tezlikda kamayadi.

Yarim yog’liq ishqalanishda yog’ qatlami yuza birligiga tushayoTJan bosimning ma’lum qismini yog’ o’ziga oladi va chiziqli yeyilishni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\varepsilon = \Delta h / \Delta S = c p (1 - D \eta v l / h^2 p),$$

D ηvl/h²p – ishqalanish juftliklarida umumiyluklanishning yog’ qatlami orqali o’tayoTJan qismini bildiruvchi ko’rsatkich;

D – yog’ qatlamidagi gidrodinamik bosimni ko’rsatuvchi koeffisiEHt;

η – yog’ qayishqokligi;

v – ishqalanuvchi yuzalarning niSBiy xarakatining chiziqli tezligi;

h – ishqalanuvchi juftliklardagi minimal yog’ katlami qalinligi.

Qanchalik yog’lanish sharoiti yaxshilanishi (yog’liq ishqalanish) bilan, chizikli yeyilish kamayadi va ishqalanuvchi juftliklardagi ishlash sharoiti yaxshilanadi.

3.3. Iqlanish yuzalari sifatining yeyilishga ta’siri

Uskuna qismlaridan foydalanish samaradorligi ishchi yuzalarning sifatiga bog’lib bo’lib, ishqalanuvchi juftliklari tayyorlangan matallarining geometrik va fizik-mexanik xususiyatlari bilan aniqlanadi. Ishchi yuzalarning geometrik ko’rsatkichlari ularning notekisliklari bo’lib, ularga **mikrogeometriya (sheroxovatnost), makrogeometriya va to’lqinliklar** kiradi.

4. 2СБ-10 quritish barabani tuzilishi, ishdan chiquvchi qismlari va ularni ta'mirlash?
5. 2СБО quritish barabani tuzilishi, ishdan chiquvchi qismlari va ularni ta'mirlash?
6. Quritish jarayoniga issiqqliq bilan ta'minlovchi generatorlarning tuzilishi, ishdan chiquvchi qismlari va ularni ta'mirlash?
7. Tutin so'rgich ventilatorlarining Tuzilishi, ishdan chiquvchi qismlari va ularni ta'mirlash?

9-bob. Paxtani tozalash uskunalarini ta'mirlash va sozlash

Jinlarning optimal ravishda ishlashi va tola tarkibida iflos aralashmalmarni kamaytirish uchun paxta toshlar, metall buyumlar, organik iflos aralashmalar va o'likdan tozalanadi.

Og'ir aralashmalar – toshlar, metall buyumlar, paxtaning ochilmagan va yarim ochilgan ko'saklarini ushlab qolish uchun hovli va bo'limlararo qo'llaniladigan pnevmota'minlagich tizimlarida separatorlar oldidan o'rnatiladigan tosh ushlagichlar qo'llanadi.

Paxtani mayda iflos aralashmalardan, o'likdan tozalash uchun qoziqchali barabanlar, setkali yuzalar, chigitli paxtani hamma ko'rinishdagi iflos aralashma va o'likdan tozalash uchun esa arrali barabanlar, ildiruvchi cho'tka, kolosnikli panjaralar va cho'tkali ajratuvchi barabanlar bilan jihozlangan paxta tozalash mashinalari qo'llaniladi.

9.1. Paxta tozalash mashinalari

ЧХ-3М2 "Mexnat" va ЧХ-5 arrachali paxta tozalash mashinalari (1 va 3 rasmlar) ta'minlovchi valiklari, titish barabani, ikkita asosiy va bitta regenerasion arrachali baraban, ildiruvchi cho'tka, ikkita cho'tkali ajratuvchi baraban va kolosnikli panjaradan iborat.

Paxta titish barabani bilan bиринчи asosiy arrachali barabanga beriladi, cho'tkali ajratuvchi baraban yordamida ikkinchi asosiy arrachali barabanga yo'naltiriladi, bunda arrachalarga paxta cho'tkalar yordamida ilintiriladi va kolosnikli panjara bilan to'qnashishda iflosliklardan tozalanadi. Paxta arrachalardan cho'tkali ajratuvchi barabanlar yordamida ajraladi, keyin esa tozalash mashinasidan tashqariga chiqariladi. Kolosnikli panjalardan iflosliklar bilan birga o'tib ketgan paxtalar chiqindilardan regenerasion arrachali baraban yordamida ajratib olinadi, cho'tkali ajratuvchi baraban bilan ajratib, paxta tozalash mashinasidan chiqib ketayotgan paxtaga qo'shiladi. ЧХ paxta tozalash mashinalari tozalash bo'limida ishlatiladi.

Rekonstruksiya qilingan paxta tozalash korxonalarida takomillashtiri-lib, konstruksiyasidan birinchi arrachali baraban va cho'tkali ajratuvchi baraban olingan ЧХ-5М paxta tozalash mashinasi (5 rasm) qo'llaniladi.

1ХII (PX-1) arrachali paxta tozalash mashinalari (7-rasm) to'g'ri oqimli pnevmota'minlagich, asosiy va regenerasion arrachali barabanlar, kolosnikli panjara, ildiruvchi cho'tkalar, cho'tkali ajratuvchi baraban va ifloslikni chiqaruvchi shmekni o'z ichiga olgan bo'lib, normallashtirilgan arrachali EH.177 bo'limlarga ega. Paxta asosiy arrachali barabanga havo oqimi bilan beriladi, tozalangandan keyin esa cho'tkali ajratish barabani bilan havo oqimiga qaytariladi. Pnevnota'minlagich aylanib o'tuvchi kanalga ega va paxtani arrachali seksiyaga bermay tranzit yo'l bilan olib ketuvchi to'siqlar bilan jihozlangan. 1ХII paxta tozalash mashinasi ПЛПИХtexnologik oqimlarida qo'llaniladi.

1ХK (СЧ-02) qoziqchali paxta tozalash mashinalari (9-rasm) har qaysisi qoziqchali baraban va setkali yuzadan iborat, to'rtta normallashtirilgan EH.178 bo'limlardan iborat bo'lib, boshlanishdagi qoziqchali bo'lim EH.178.01 qo'shimcha ta'minlovchi valiklar bilan jihozlangan. Paxta qoziqchali barabanlar bilan setkali

yuzalardan o'tkaziladi, bunda iflos aralashmalar ajraladi. Ikkita qoziqchali blok iflos aralashmalarni chiqaruvchi bunker bilan birgalikda tozalash seksiyasini tashkil etadi va uni mustaqil ravishda qo'llash mumkin.

1XK (СЧ-02) qoziqchali paxta tozalash mashinalari bitta – qatorlarga jamlanib, ikkita –**ПЛПХ** texnologik oqim tarkibida, uchta – **УХК** paxta tozalash ageragatlari bilan birlashtirilgan xolda qo'llaniladi.


УХК paxta tozalash agregati (11- rasm) to'rtta tozalash bo'limiga ega bo'lib, boshlanishida **УХК.01** ikkita oraliqdagi **УХК.02** va oxirida **УХК.03** kiradi, oralig'iga ular bilan birgalashtirilgan tegishlicha to'rtta EH. 178 bo'limlar o'rnatilgan.

Tozalash bo'limlari har biri qoziqchali blok EH.178 (boshlang'ich seksiya EH.178.01) ga, ikkita cho'tkali ajratuvchi barabanga ega bo'lган cho'tkali bo'limga va arrachali seksiya EH.177 ga ega. **УХК** paxta tozalash agregatlari ko'p yoki oz miqdordagi seksiyalarga ega bo'lishlari mumkin. Qiyin tozalanuvi paxta seleksiyalarini tozalash uchun boshlang'ich va so'nggi seksiyalariga bittadan **1XK** paxta tozalash mashinalarini birlashtirish tavsiya etiladi.

Shuningdek **УХК** paxta tozalash agregati qatorli yig'ilgan komplekslar yoki tozalash bo'limlarida **ПЛПХ** texnologik oqim o'rniga, hamda rekonstruksiyalangan paxta tozalash korxonalarining bosh bo'limlarida qo'llaniladi.


1PX (PX) paxta regeneratori (12-rasm) yarim silindr shaklidagi aksial pnevmota'minlagich va EH.177 arrachali bo'limdan iborat. Regenerator **1RX** arrachali paxta tozalash mashinalaridan ajralib chiqgan chiqindilardagi paxtani ajratib olish uchun qo'llaniladi. Ajratib olingan paxtani yig'ib alohida qayta ishlash tavsiya etiladi.

Paxta tozalash mashinalari, tozalash bo'limlari, paxta tozalash agregatlari va chiqindilardan paxtani ajratib oluvchi (regenerator) larning texnik tavsiflari 1-jadvalda, paxta tozalash mashinalarining mumkin bo'lган nosozliklari, ularning sabablari va bartaraf qilish usullari 2-jabdvalda, paxta tozalash mashinalarida qo'llaniladigan dvigatellar, qayishlar, podshipniklar 3-jadvalda keltirilgan.




9.1 - rasm. ЧХ-3М2 “Mehnat” пaxta tozalash mashinasining sxemasi

1- ta'minlovchi valiklar, 2- qoziqchali baraban, 3- to'rli yuza, 4- ildiruvchi cho'tka,
5- arrachali baraban, 6- kolosnikli panjara, 7- cho'tkali ajratuvchi baraban.




9.2 rasm. ЧХ-3М2 “Mehnat” paxta tozalash mashinasining kinematik sxemasi.




9.3 - rasm. ЧХ-5 пaxta tozalash mashinasining sxemasi

1- ta'minlovchi valiklar, 2- qoziqchali baraban, 3- deka, 4- ildiruvchi cho'tka,
 5- arrachali baraban, 6- kolosnikli panjara, 7- cho'tkali ajratuvchi baraban,
 8- aspiration tarnov, 9- to'skich.




9.4 rasm. ЧХ-5 paxta tozalash mashinasining kinematik sxemasi.




9.5 - rasm. CX-5M paxta tozalash mashinasining sxemasi

1- ta'minlovchi valiklar, 2- qoziqchali baraban, 3- deka,
4- ildiruvchigi cho'tka, 5- arrachali baraban, 6- kolosnikli panjara,
7- cho'tkali ajratuvchi baraban, 8- aspiration tarnov, 9- to'skich.




9.6 rasm. CX-5M paxta tozalash mashinasining kinematik sxemasi.




9/7 - rasm. 1ХП пaxta tozalash mashinasining sxemasi

1- pnevmota'minlagich, 2- arrachali baraban, 3- ildiruvchi cho'tka, 4- kolosnikli panjara, 5- cho'tkali ajratuvchi baraban, 6- vintli konveyer, 7- to'sqichlar.




9.8- rasm. 1ХП paxta tozalash mashinasining kinematik sxemasi.




9.9- rasm. 1XK paxta tozalash mashinasining sxemasi

1- boshlang'ich me'yorlashtirilgan qoziqchali bo'lim EH. 178.01 (ta'minlovchi valiklar bilan); 2- ustun, 3- me'yorlashtirilgan qoziqchali bo'lim EH. 178.02; 4- ustun, bunker.




9.10 rasm. 1XK paxta tozalash mashinasining kinematik sxemasi.




9.11-rasm. YXK Paxta tozalash agregatining sxemasi

- 1- UXK. 01. boshlang'ich ta'minlovch valiklar bo'limi
- 2- UXK. 02. ikkita oraliq bo'lim; 3-UXK. 03. yakuniy bo'lim.



9.12 - rasm. PX-1 paxtani regenerasiyalash mashinasining sxemasi

1- pnevmota'minlagich, 2- arrachali baraban, 3- ildiruvchi cho'tka,
4- kolosnikli panjara, 5- cho'tkali ajrauvchi baraban, 6- vintli konveyer.



9.13 rasm. PX-1 paxta regenerasiyalash mashinasining kinematik sxemasi.

1-jadval

Paxta tozalash mashinalari, tozalash bo'limlari, paxta tozalash agregatlari va chiqindi ajratuvchi regeneratorlarning texnik tavsiflari

Ko'rsatkichlar	Paxta tozalash mashinalari				Agregat	UXK agregat bo'lmlilar	Regenerator		
	ChX-3	ChX-5	ChX-5M	Arrachali	Qo-zigli	UXK	Muvro-fiq-lash-tiri-lgan UXK	Qo-zigli YeN. 178	1RX (RX)
1	2	3	4	5	7	8	9	10	11
Ish unumidorigi, th	5,0	6,5	6,5	7,0	7,0	7,0	7,0	7,0	7,0
I-II nav paxtada	4,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0
III-IV-V navda	13,0	13,0	8,5	7,0	12,0	64	13,0	7,0	3,0
O'rnatilgan quvvat, kW									7,0
Jurnladani:									
Barabanlarga									
Qoziqli (pichoqqli, arrali, shnek) va ta'minlovchi valiklarga, cho'tkali, qoziqli	7,5 5,5	7,5 5,5	5,5 3,0	4,0 3,0	12,0		4,0 9,0	4,0 3,0	4,0 3,0
Aylanish tezligi, r/min									
Ta'minlash valiklari	0-8	0-12	0-12		0-14	0-14			
Qoziqli barabon	450				480	480		480	

	1	2	3	4	5	7	8	9	10	11	12
Pichqoli baraban		485	450								
Arrali baraban	280	300		300		300	300	300	300	300	300
Cho'tkali baraban	960	960	960	945		945	945	945	945	945	945
Chiqindilar shnegi				130		130	130	130	130	130	130
Texnologik tir qishlar, mm:											
Qoziqli baraban						12-14	12-14	12-14	12-14	12-14	12-14
va to'liyuza orasidagi masofa											
Arrachali baraban va											
cho'tkali baraban orasidagi masofa	0-2	0-2	0-2	0-2			0-2	0-2	0-2	0-2	0-2
Kolosnikli paniyara bilan											
arrachali baraban oralig'i	12-14	12-14	12-14	12-14			12-14	12-14	12-14	12-14	12-14
Shnek va uning tog' orasi orasidagi											
masofa											
Gabarit o'lchamlari, mm:											
uzunligi											
kenglig'i	3210	3280	3280	3190	3945	13000	3190	3190	3190	3190	3190
balandligi	1480	1200	1200	1534	2683	3190	3100	1137	996	1137	
Massasi, kg.	2700	2600	1960	2260	1843	2625	1740	600	2150		
	3369	2850	2150	1820	3100	13600	3400	1600	650	1650	

9.2. Paxta tozalagichlarning nosozliklari, ularning sabablari va bartaraf qilish usullari

<i>Nosozliklar</i>	<i>Sabablari</i>	<i>Bartaraf qilish</i>
1	2	3
Tozalash samaradorligi past.	<p>Berilayotgan paxta miqdori passportdagi ish unumdorligidan yuqori.</p> <p>To'rli yuza, ko'sak qobiqlari, shox bo'lakchalari va mayda toshlar bilan tinqilgan.</p> <p>Yopishtirish cho'tkasi va cho'tkali baraban cho'tkalari eskirgan.</p> <p>Arrachali barabanlar va kolosniklar oralig'i tavsiya etilgandan ko'p. Ishchi organlarning tezlik rejimi buzilgan.</p> <p>Baraban garniturasidagi arracha tishlari zararlangan.</p> <p>Paxtaning namligi tavsiya etilgandan yuqori.</p>	<p>Ta'minlovchi valiklarga tavsiya etilgan tezlik o'rnatilsin.</p> <p>To'rli yuza tozalansin.</p> <p>Eskirgan cho'tkalar almashtirilsin.</p> <p>Oraliq 12-14 mm qilib qo'yilsin.</p> <p>Dvigatellarning aylanish tezligi pasportdagidek to'g'irlansin.</p> <p>Shkivlar diametri va qayishlar tarangligi tekshirilsin.</p> <p>Tishi zararlangan garnitura almashtirilsin.</p> <p>Tozalashdan oldin paxta tavsiya etilgan namlikgacha quritilsin: I, II, III navlar uchun 9 %, dan va IV, V navlar uchun 10 % dan ko'p bo'lмаган.</p> <p>Me'yoriy ta'minlash o'rnatilsin.</p>
Ish unumdorligining pasayishi.	<p>Paxtani berilishi kamaygan</p> <p>Paxtaning namligi tavsiya etilgandan yuqori.</p> <p>Ishchi organlarning tezlik rejimi buzilgan.</p>	<p>Quritishdan avval paxta tavsiya etilgan namlikgacha quritilsin.</p> <p>Dvigatellarni aylanish tezligi pasportdagiga to'g'ri kelishi, shkivlar diametri va tasmalar tarangligi tekshirilsin.</p>
Tiqilishlar.	Paxtaning namligi yuqori.	Tozalashdan avval paxta tavsiya etilgan namlikgacha quritilsin.
		Ish unumdorligi

	<p>Paxtaning berilishi pasportdagidan ko'p.</p> <p>Ishchi organlarning tezlik rejimi buzilgan.</p> <p>Arrachali barabnlardan paxtaning, cho'tkali barabanlar bilan to'liq ajratilmasligi.</p>	<p>pasportdagidek qilib o'rnatilsin.</p> <p>DVigatellar aylanish tezligi pasportdagiga to'g'ri kelishi, shkvilr diametri va tasmalar tarangligi tekshirilsin.</p> <p>Cho'tkali barabanlar, arrachali baraban garniturasini tekshirilsin.</p> <p>Eskirgan cho'tkalar</p>
Chiqindilarda tolali chigit va erkin tolani ko'payishi	<p>Regenerator pnevmotizimida aerodinamik rejim buzilgan.</p> <p>Setkali yuza zararlangan.</p> <p>Qoziqli barabanlar va to'rli yuza oralig'i buzilgan.</p> <p>Arrachali barabanlar garniturasini tishlari zararlangan.</p> <p>Berilayo TJan paxta pasportdagi ish unumdorligidan yuqori.</p> <p>Arrachali baraban va kolosniklar oralig'i buzilgan.</p> <p>Ilashtiruvchi cho'tkalari yoki cho'tkali baraban cho'tkalari eskirgan.</p> <p>Paxta namligi tavsiya etilgandan yuqori.</p> <p>Ishchi organlarning tezlik rejimi buzilgan.</p> <p>Arrali baraban va kolosniklar oralig'i, qoziqli baraban va to'rli</p>	<p>almashtirilsin, ishchi organlar tezligi tekshirilsin.</p> <p>Havo sarfi $0,94 - 1,14 \text{ m}^3/\text{s}$ oralig'ida o'rnatilsin</p> <p>Quvurlarda imkoniy tiqilishlar tekshirilsin, atrofdan havo so'rishlar yo'qotilsin.</p> <p>Setkali yuza almashtirilsin yoki tuzatilsin.</p> <p>Oraliq 12-14 mm qilib o'rnatilsin.</p> <p>Zararlangan arrali garnitura almashtirilsin.</p> <p>Ta'minlash valiklariga tavsiya etilgan tezlik o'rnatilsin.</p> <p>Oraliq 12-14 mm qilib o'rnatilsin.</p> <p>Eskirgan cho'tkalar almashtirilsin.</p> <p>Tozalashdan avval paxta tavsiya etilgandek quritilsin.</p> <p>Dvigatel aylanish tezligini pasportdagiga to'g'rili, shkvilr diametri va qayishlar tarangligi tekshirilsin.</p> <p>Oraliq 12-14 mm qilib o'rnatilsin.</p>

Chigitning mexanik jarohatlanishi yuqori.	yuza oralig'i kamaygan. Paxta berilishi pasportdagi ish unumdorligidan yuqori.	sh unumdorligi pasportga binoan o'rnatilsin.
Podshipniklarda, dvigatellarda va variatorda begona tovush.	Podshipnik elementlarining zararlanishi yoki to'kilishi. Moyni yo'qligi, podshipnik elementlarining ifloslanganligi. Podshipnik uzellarida qistirgich yoki manjetlar zararlangan. Qopqoqlar boltlari yaxshi tortilmagan.	Podshipnik almashtirilsin. Podshipnik almashtirilsin.
Podshipnik korpuslarining 60° S dan yuqori qizishi.		Boltlar tortilsin.

3-jadval

9.3. Paxta tozalash mashinalarida qo'llanadigan dvigatellar, qayishlar va podshipniklar R O' Y X A T I

Paxta toza-lash mashinalari	Ko'r-satish №	Nomi va belgilanishi	Miqdori
ЧХ-3М2	1	Dvigatel 4AM123M6UPUZ R=7,5 kW, n=970 r/min	1
	13	Dvigatel 4AM123S6UPUZ R=5,5 kW, n=960 r/min	1
	19	Qayish V (B) – 2240 T	23
	20	Qayish A – 1250 T	2
	22	Podshipnik 11205	4
	23	Podshipnik 206	4
	21	Podshipnik 11310	12
ЧХ-5	1	Dvigatel 4AM123M6UPUZ R=7,5 kW, n=945 r/min	1
	12	Dvigatel 4AM123S6UPUZ R=5,5 kW, n=960 r/min	1
	16	Qayish V (B) – 2240 T	12
	17	Qayish A – 1250 T	2
	18	Podshipnik 11205	3
	3	Podshipnik 206	4
	20	Podshipnik 11310	12
ЧХ-5М	1	Dvigatel 4AM123M6UPUZ R=7,5 kW, n=970 r/min	1
	12	Dvigatel 4AM123S6UPUZ R=5,5 kW, n=960 r/min	1
	17	Qayish V (B) – 2240 T	2
	16	Qayish A – 1250 T	10
	19	Podshipnik 11205	2

	18	Podshipnik 206	4
	20	Podshipnik 11310	8
1XP	1	Dvigatel 4AM112M6UPUZ 380 VUM 1081 R=7,5 kW, n=945 r/min	1
	4	Dvigatel 4AM112MV6PUZ 380 VUM 1081 R=5,5 kW, n=960 r/min	1
	13	Qayish V (B) – 2240 T	9
	14	Podshipnik 11310	6
	8	Podshipnik 1208	2
	15	Podshipnik 206	2
1XK	2	DVigatel 4AM112M6UPUZ R=3 kW, n=945 r/min	4
	10	Qayish V (B) – 2240 T	12
	11	Qayish A – 1250 T	2
	9	Podshipnik 11205	4
	12	Podshipnik 11310	16
	7	IVA 00.000. Impulsli variator	1
1PX	1	Dvigatel 4AM112MA6UPUZ 380 VUM 1081 R=3 kW, n=945 r/min	1
	4	DVigatel 4AM112MV6PUZ 380 VUM 1081 R=4 kW, n=945 r/min	1
	13	Qayish V (B) – 2240 T	9
	14	Podshipnik 11310	6
	15	Podshipnik 1208	2
	16	Podshipnik 206	2

Topshiriq va nazorat savollari.

1. Paxta zavodlarida qanday tozalagichlar ishlataladi?
2. Tozalagichlarning qanday ishchi bo'lak va qismlari bor?
3. Tozalagichlarning ish unumdarligi qanday sozlanadi?
4. Tozalash uskunalaridagi texnologik tirqishlar va ularni sozlash?
5. Paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunalaridagi qoziqchali barabanlarning tuzilishi va ko'p yeyiladigan qismlarini (joylarini), xamda tiklash yo'llarini tushintiring?
6. Yirik iflosliklardan tozalash uskunalari asosiy ishechi qismlarining vazifalari, ishdan chiqish joylari va ularni tiklash yo'llarini tushuntiring?
7. 1-XK mayda iflosliklardan tozalash uskunasining konstruksiyasi va ishlash jaroyonida ishdan chiquvchi qismlarini aytинг?
8. 1-XK uskunasining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklar.
9. 1-XK uskunasining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklarni bartaraf etish usullari.
10. ЧХ-3М2 yirik iflosliklardan tozalash uskunasining konstruksiyasi va ishlash jaroyonida ishdan chiquvchi qismlarini aytинг?
11. ЧХ-3М2 uskunasining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklar.
12. ЧХ-3М2 uskunasining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklarni bartaraf etish usullari.

- 13.ЧХ-5 yirik iflosliklardan tozalash uskunasining konstruksiyasi va ishlash jaroyonida ishdan chiquvchi qismlarini ayting?
- 14.ЧХ-5 uskunasining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklar.
- 15.ЧХ-5 uskunasining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklarni bartaraf etish usullari.
- 16.УХК tozalash agregatining konstruksiyasi va ishlash jaroyonida ishdan chiquvchi qismlarini ayting?
- 17.УХК tozalash agregatining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklar.
- 18.УХК tozalash agregatining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklarni bartaraf etish usullari.

10-bob. Paxtani jinlash uskunalarini ta'mirlash va sozlash.

Tolani ajratish (jinlash) – chigitli paxtadan tolani ajratish jarayonidir.

Tolani chigitdan ajratish uslubiga qarab tola ajratish arrali va valiklilarga bo'linadi.

10.1. Arrali tola ajratish jarayoni

O'rta tolali paxtaning barcha navlari arrali jinlarda qayta ishlanadi. Arrali jinlar to'rtta 3ХДДМ rusumli yoki ikkita 4ДП-130 jinning kamerasi qo'yilgan 5ДП-130 rusumli jinlar, tola tozalagichlar va tashish uskunalarini bilan jamlangan qatorlarga guruhlanadi.


Arrali jin 3ХДДМ paxtani mayda iflosliklardan tozalaydigan va uni kerakli miqdorda bir tekis kameraga berib turadigan, alohida holdagi ПД raxta ta'minlagichi bilan birga ishlaydi (1 rasm).

5ДП-130 jinlarida ПД ta'minlagichi jinlar majmuasiga kiradi.

Jinlarning ishi yuqori sifatli tolani eng oz miqdorda chiqindilar hosil qilib mashina pasportida ko'rsatilgan ish unumдорligini ta'minlagan holda bir xil tukdorlikdagi chigit chiqishi va eng yuqori sifatli tola chiqishini ta'minlashi kerak.

10.1.1. Jinning ПД rusumli ta'minlagichi

Ta'minlagich 3ХДДМ jinini tilgan paxta bilan ta'minlash va paxtani mayda iflosliklardan tozalashga mo'ljallangan.



10.1-rasm. Jinning ПД rusumli ta'minlagichning sxemasi

1- ta'minlash valiklari; 2- qoziqchali baraban; 3- to'rli yuza; 4- tarnov; 5- orqa qopqoq; 6- ifloslik yig'gich.

ПД rusumli ta'minlagichining imkoniy nosozliklari, ularning sabablari va bartaraf qilish usullari

1-javmal

Nosozliklar	Sabablari	Bartaraf qilish usullari
Chigitlar sinadi.	Qoziqli baraban qoziqchalari va to'rli yuzaning oralig'i kichik. Qoziqli barabanni aylanish tezligi buzilgan.	Oraliq 12 mm dan 16 mm gacha o'matilsin. Qoziqli baraban tezligi sozlansin.
Tolali chiqindilarda	To'rli yuza shikastlangan.	To'rli yuzaning

paxta bo'laklari bo'ladi.		shikastlangan joylari tuzatilsin.
Xonaga chang chiqadi.	Havoni so'rish oz yoki umuman yo'q. Podshipnik korpuslari qotirilishi buzilgan.	Havo so'rishni $0,3 \text{ m}^3/\text{s}$ bo'lishini ta'minlansin. Tekshirilsin va korpuslar qotirilsin.
Mashina tebranadi.	Qoziqli barabanning muvozanati buzilgan (qoziqlar yo'q). Qoziqli barabanning aylanish tezligi katta.	Qoziqlar o'rnatilsin va qotirilsin.
Ish vaqtida elektro-DVigatel o'chib qoladi.	ElektroDVigatel zo'riqish bilan ishlaydi, iCCiqlik relesi elektroDVigateli ni o'chirib qo'yadi. Ta'minlagich blokirovkasi buzilgan.	Kerakli tezlik rejimi o'rnatilsin Zo'riqish yo'qotilsin. Oxirgi o'chirgichning kontaktlari tekshirilsin.

10.1.2. ЗХДДМ rusumli arrali jin


ЗХДДМ arrali jin (2 rasm) ishchi kamera, arrali silindr, korpus, havo kamerasi, o'lik konveyeri, chigit uchun tarnov va elektr uskunalaridan tashkil topgan mustahkam konstruksiyadan iborat. Korpus yondorlari o'zaro kegay va tarnovlar vositasida birlashtirilgan. Shu yondorlarning tayanch sirtlarida arrali silindr va quyma boshmoqlar yordamida sharnirli birikmada havo kamerasi o'rnatilgan.

Korpusning old kegaya osma moslamali ikki ustun o'rnatilgan bo'lib, unda sharnirlarda ishchi kamera o'rnatilgan.

ЗХДДМ arrali jin ДП-130 jinining detallari bilan unifikasiyalashtirish maqsadida mukammallashtirilib, ЗХДДМ jin ishchi kamerasi o'rniga УМПД ishchi kamerasi (3 rasm) bilan ta'minlangan.

Titilgan va tozalangan paxta ta'minlagichdan tarnov orqali ishchi kameraga tushadi va aylanib turgan xom-ashyo valigiga qo'shiladi.

Arralar paxta valigiga kirib tishlari bilan tolali chigitlarni ilib oladi va kolosnikli panjaraning ishchi yuzasigacha surib boradi u yerda chigitlardan tola ajraladi. Ajratilgan tola panjara tirkishidan o'tib havo kamerasining soplosigacha arra tishida boradi.



10.2-rasm. УМПД ishchi kamerali ЗХДДМ arrali jinning ko'ndalang qirqimi sxemasi


1- ishchi kamera; 2- arrali silindr; 3- korpus; 4- havo kamerasi;
5- o'lik konveyeri; 6- chigit tarnovi.

Soplordan chiqayotgan havo oqimi bilan tolalar arra tishlaridan ajratiladi va havo bilan birgalikda tola tozalagichga boradi, keyin tola olib ketish quvuridan kondensorga boradi.

Iflosliklar va o'lik toladan og'irroq bo'lgani tufayli markazdan qochma kuch ta'sirida kameraning tolalar kirish tirqishi yonidan uchib o'tadi va o'lik konveyeriga tushadi.


Ko'rsatilgan aralashmalar o'lik konveyeri yordamida so'rib olib ketish quvuriga yo'llanadi va havo yordamida olib ketiladi.

Tolasi ajratilgan chigitlar paxta valigiga ilakisha olmay ajralib qoladi va kolosniklar orqali tarnovdan tushib mashinadan olib ketiladi.




10.3-rasm. ЗХДДМ arrali jinning УМПД ishchi kamerasi sxemasi

1- chigit tarog'i; 2- fartuk; 3- kegay; 4- pastki brus; 5- ustki brus.




10.4-rasm Arrali silindrning tuzilishi va umuiy kىىrinishi.


1-podshipnik, 2-podshipnikning qisish konusi, 3-val, 4-arra diskleri, 5-qistirmalar,



10.5-rasm Kolosniklarni yuqorigi va pastki bruslarga terish (maxkamlash) tartibi.




10.6-rasm Arrali silindrda arralar orasi o'lchamlarni tekshirish shabloni.




10.7-rasm Arra tishlaridan tolalarni tushirib olish uchun tirkish va o'lchamlarini sozlash.

1-soplo, 2-tola ketish yo'li (golovinasi), 3-yo'naltiruvchi silindr, 4-ulyuk ajratish pichog'i (kozerogi), 5-ulyuk pichog'ini rostlovchi moslama, 6-Xova qurilmasini arra silindriga niSBatan mostlovchi salazka, 7-xavo beruvchi quvur, 8-arraning kolosnikdan chiqish darajasini mostlovchi bolt.



10.8-rasm Arra va kolosnik ishchi qismlarini sozlashda ishlataladigan shoblonni ishlatish.



10.9-rasm Jin kamerasini arrali silindrga nisbatan sozlovchi kamera osqichi.

1-sharnir, 2-yo'naltiruvchi shtok, 3-sharnirni yo'naltiruvchi shtok bo'yicha ko'tarib tushiruvchi bolt, 4,5-shtok va sozlovchi boltlarni tutib turuvchi rama.

10.1.3. ДП-130 rusumli arrali jinlar


ДП-130 arrali jin 3ХДДМ jinidan farqli yuqori ish unumдорligiga ega bo'lib, ishchi kamerasini ko'tarish va tushirish mexanizmi bilan ta'minlangan.

4ДП-130 arrali jin (10-rasm) takomillashtirilgan ishchi kameraga ega, bu kamera 5ДП-130 rusumli jinga o'rnatilib ishlatilmoqda.

5ДП-130 arrali jinda (12-rasm) tolani arra tishidan chiqarish havo kamerasining konstruksiyasi o'zgartirilgan, bir tomonlama qotiriladigan qotirish sirti kengaytirilgan kolosniklar va jinni paxta bilan aBTomatik usulda ta'minlash qurilmasi qo'llangan o'liz kolosniklari o'rnatilgan.



Arrali jinlarda paxta valigini tozalash (ishchi kamerani tozalash) quyidagicha bajariladi, bir smenada:

- birinchi va ikkinchi navlar ikki martadan kam emas;
- uchinchi va to'rtinchi navlar uch martadan kam emas;
- beshinchi navlar to'rt martadan kam emas.



10.10-rasm. 4ДП-130 arrali jinning ta'minlagichi bilan ko'ndalang qirqimi sxemasi

1- ta'minlagich; 2- ta'minlash valiklari; 3- qoziqli baraban; 4- to'rli yuza; 5- ifloslik konveyeri; 6- tarnov; 7- ishchi kamera; 8- ustki brus; 9- fartuk; 10- kolosnik; 11- chigit tarog'i; 12- arrali silindr; 13- qirg'ich; 14- o'lik konveyeri; 15- tola ajratish havo kamerasi




10.11- rasm. ДП-130 rusumli djinning ishchi kamerasi

a- chigit tarog'i va kolosnikli panjarani rostlash mexanizmi:

1-chigit tarog'ini rostlash mexanizmi; 2-pastki fartuk qulfi; 3-yuqori fartuk; 4,5-yuqori va pastki bruslar; 6-kolosniklar; 7,9-yonlik; 10-ishchi kamerani rostlovchi oskichlar.

b-ishchi kamerani yon tomondan kesimi va xizmat ko'rsatish tomonidan ko'rinishi:

1,5- pastki va yuqori bruslar; 2-chigit tarog'; 3-pastki fartuk qulfi; 4-yuqori fartuk.



**10.12- rasm. 5ДП-130 arrali jinning ta'minlagichi
bilan ko'ndalang qirqimi sxemasi**

1- ta'minlash valiklari; 2- qoziqli silindr; 3- to'rli yuza; 4- ifloslik konveyeri; 5- tarnov; 6- ishchi kamera; 7- fartuk; 8- chigit tarog'i; 9- bir tomonlama qotirilgan kolosniklar; 10- arrali silindr; 11- o'lik konveyeri:

Arrali jindaruning texnik tawsifi

Ko'rsatkich nomi	UMPD kamerali ZXDDM	4DP-130	Ko'rsatkich miqdori
1	2	3	4
Tola bo'yicha ish unumadorligi, kg/h			
I va II navlarda	780± 25	2000±200	2000±200
III va IV navlarda	550 ±25	1200 ±100	1200±100
Havo kamerasidagi statik bosim Pa (mm H ₂ O)	1800-2000 (180-200)	2200 (220)	2200 (220)
Tolani ajratish uchun havo sarfi, m ³ /s	0,55	0,8 gacha	0,8 gacha
Tola tozalagich bilan jin orasida quvur dagi havoning statistik bosimi Pa (mm H ₂ O)	0+50 (0+5)	0+51 (0+5)	0+51 (0-5)
Chiqindilarni olib ketish uchun havo sarfi m ³ /s	0,1	0,2-0,3	0,2-0,3
Umumiy tozalash samaradorligi, %	10-15	10-15	15 dan kam emas
Chigit tukendorligi, %	12-13	12-13	12-13
Ishchi organlarni aylanish tezligi, rad/s (r/min)			
arrali silindrniki	63,93 (735)	76,93 (735)	76,41 (730)
Qoziqli barabanniki	52,33 (500)	52,33 (500)	53,59 (512)
ta'minlash valiklariniki	0-1,46 (0-14)	0-1,46 (0-14)	0-1,46 (0-14)
o'llik va ifloslik konveyerlariniki	0,87 (49)	0,66 (35)	0,41 (23)
O'rnatilgan quvvat, kW			
arrali silindrda	55	75	75
ta'minlagichda	2,2	2,2	2,2
ta'minlovchi valiklarda	-	0,2	0,85
ishchi kameralari xarakatlantirishda			

<u>O'lik va ifloslik konveyerlarida</u>	1,1	1,1	1,1	1,1
<u>Teknologik tizishlar, mm:</u>	0,6	1,1	1,1	1,1
ishchi xududda kolosniklar orasidagi yuqori xududda kolosniklar orasidagi qoziqli baraban qoziqlari va to'r yuzasi orasida arrali silindir va havo kamerasi borusi orasidagi o'lik ajratgichi va arrali silindr orasidagi	2,8-3,2 4±1,43 15-18 1-3 10-20 2	2,8-3,2 4±1,43 15±5 1-3 3-15 3	2,8-3,2 4±1,43 15±5 1-3 2-2,5 4	2,8-3,2 4±1,43 15±5 1-3 2-2,5 4
<u>Arraning kolosnikdan chiqib turishi, mm</u>	46-50	47-50	47-50	47-50
<u>Arralar soni, dona</u>	86	130	130	130
<u>Ishchi organlarni asosiy o'lchamlari, mm:</u>				
arraning tashqi diametri	320 ± 25	320 ± 0,25	320 ± 0,25	320 ± 0,25
arraning ichki diametri	61,8+0,2	100+0,2	100+0,35	100+0,35
arralar oralig' masofasi	18±0,05	18±0,05	18±0,05	18±0,05
arralar orasidagi qistirmalarning eni	17± 0,05	17,05± 0,05	17,05± 0,05	17,05± 0,01
qistirmalarning tashqi diametri	160	160	160	160
<u>O'lik va iflosliklar konveyerlarining diametri</u>				
qoziqli baraban diametri	150	150	150	150
ta'minlash valiklarning diametri	400	400	400	400
qirg'ich diametri	140	140	140	140
<u>Mashina gabarit o'lchamlari, mm:</u>				
uzunligi	-	150	-	4410
kengligi	-	400	-	4605
balandligi	-	140	-	1605
Massasi, kg	-	150	-	1450
<u>(boshqarish shkafisiz)</u>				2380
<u>Arrali valning o'lchamlari, mm:</u>				4150 dan ko'p emas
diametri	61,8	100	100	100

10.1.4. Arrali jinlarning imkoniy nosozliklari, ularning sabablari va bartaraf qilish usullari

3-jadval

Nosozliklar	Sabablari	Bartaraf qilish usullari
Tolada tugunchalar va o'ramlar ko'p.	Paxta yuqori namlikga ega yoki tozalagichlarda chaynalgan, arralar o'tmas, singan tishlari bor.	Namlik me'yoriga keltirilsin, tozalagichlar sozlansin. Arralar almashtirilsin.
Chigitlar me'yoridan ortiq shikastlangan, chigit tola va o'likga tushadi.	Arra tishlari ignasimon shaklga ega. Arra tishlari singan va egilgan. Kolosniklar ishchi xududida yedirilish kengaygan, tirqish katta.	Arralar qumli vannada silliqlansin. Arralar almashtirilsin. Kolosniklar almashtirilsin.
Chigitning tukdorligi bir xil emas.	Ishchi kamera uzunligi bo'yicha paxta bilan ta'minlash bir xil emas. Ba'zi xududlarda arra va kolosniklar zararlangan. Chigit tarog'ida bitta yoki bir nechta tish singan yoki yo'q.	Paxta bilan ta'minlash sozlansin. Arra va kolosniklar almash-tirilsin. Singan taroq tishlari to'ldirilsin. Ta'minlash ko'paytirilsin. Tiqilish yo'qotilsin.
Xom-ashyo valigining aylanishi to'xtab qoladi.	Xom-ashyo valigi bo'sh. Kolosnik panjarasining ustki qismi tiqilgan. Havo kamerasida bosim yetarli emas.	Bosim sozlansin, arrali silindr va havo kamerasi orasidagi tirqish sozlansin. Bir xil diametrli arralar o'rnatilsin.
O'likda tola ko'p.	Arralarning diametri har xil, havo kamerasining tirqishi buzilgan yoki tiqilgan. Tola olib ketish kanalida tiqilish bor. Tola olib ketish yo'lida oshiqcha bosim bor. Tola tozalagich tiqilgan.	Havo kamerasini tirqishi sozlansin, tiqilish tozalansin. Oshiqcha bosim yo'qotilsin.
«Pusk» tugmasini bosganda dvigatel-lardan birontasi ham yurmaydi.	O'lik ajratgichi yomon sozlangan. To'siqlardan birontasi zikh yopilmagan, shuning uchun so'nggi o'chirgichlardan	Tiqilish yo'qotilsin. O'lik ajratgich sozlansin. To'siqlar zichlab yopilsin. Kalitni to'g'ri holga qo'yilsin.

<p>ДП3-180 va 5ДП-130 rusumli jinlarda qo'lda boshqarish rejimida boshqarish postidagi signal lampasi yonadi.</p>	<p>birida kontakt yo'q. Boshqarish kaliti neytral holatda turgan. Tolani chiqarish ventilyatori yoki o'lik konveyeri yurgizilmagan. Magnit yurgizgichning o'rami zararlangan. Saqlagichlar kuygan.</p>	<p>Ventilyator va o'lik konveyeri yurgizilsin. O'ram almashtirilsin. Eruvchan saqlagichlar almashtir</p>
---	--	--

10.1.5. Arrali jinlarda qo'llaniladigan dvigatellar, reduktorlar, tasmalar va zanjirlar ro'ixati

4-jadval

Jin	Nomi va belgisi	Soni
1	2	3
3ХДЛМ	Elektr dvigatel 4A250 MB O'z p=750 R=45kBT	1
	Motor-reduktor MRA-1-1,75/bZB	1
	Podshipnik 11206	2
	Podshipnik 1312	2
	Tasma B-1660 T	1
ДП-130	Elektr dvigatel 4A 280MV Uz p=740 R=75 kBT R=2,2 kBT	1 1
	Reduktor-motori MRA-10,75/63 B Uz Elektr DVigatel 4A7I V6 Uz p=920 ail/dak,	1
	R=0,55 kBT	1
	Reduktor 4VOA-40-52-2 Uz	1
	Variator impulsli IVR.00.000	1
	Podshipnik 1216	2
	Podshipnik 11205	4
	Podshipnik 11207	8
	Podshipnik 11210	2
	Podshipnik 25	6
	Zanjir 12,7-1800-1	2
	Tasma A-800T	2
	Tasma A-1250T	17
	Tasma B-1400T	2
4ДП-130	Elektr DVigatel 4A 280M8 Uz p=740 R=75 kBT R=1,1 kBT R=2,2 kBT Reduktor Ch-80-40-52-2-Uz	1 2 1 1

10.2. Valikli jin

Uzun tolali paxtaning I, II va III tip I, II, III, IY va Y sanoat navlari tolasini ajratish ДВ-1М ва 2ДВ rusumli valikli jinlarda amalga oshiriladi.

ДВ-1М valikli jinlar har bir qatorda 10 tadan mashina, 2 ДВ valikli jinlar esa 5 tadan o'rnataladi.

Valikli jinlash usulida paxta tolasini jinni ishchi barabanini sirtiga yopishishi va aylanayotgan baraban bilan unga siqib o'rnatalgan qo'zg'almas po'lat pichoq orasidan o'tib ketishidan iborat. Bunda pichoqdan o'taolmay qolgan chigitlarni uruvchi baraban kuraklari bilan urishi hisobiga toladan ajraladi.

Jining ish unumdorligiga va chiqarilayotgan mahsulot sifatiga ishlov berilayotgan paxta namligi ham ta'sir etadi.

Uzun tolali paxtaga qayta ishlash jarayoni uchun eng maqbul paxta namligi 6,5-7,0 foizdir.

Tola ajratishda, shuningdek asosiy ishchi qismlar orasida qulay tirqish va o'rnatish o'lchamlariga, asosan ishchi baraban va uruvchi baraban orasidagi tirqishga e'tibor berish katta ahamiyatga egadir.


Bu tirqish 0,5 - 1,5 mm ga teng bo'lishi lozim.

Bu tirqish 1,5 mm dan oshib ketsa mashinaning ish unumdorligi sezilarli darajada kamayadi, chigitning shikastlanishi oshadi va tola sifati pasayadi.

10.2.1. ДВ-1М valikli jini

ДВ-1М valikli jinlar 1979 yildan buyon ko'plab ishlab chiqarila boshlandi.

ДВ-1М valikli jinidan farqlanib, ta'minlagich- bo'lgichga, ikkita tola ajratish karetkasiga, ustki karetkadan keyin tuksizlantirilgan chigitni ajratish bo'linmasiga, ishchi valikni kuchaytirilgan qo'zg'almas pichoqqa avtomatik siqish mexanizmiga hamda ishchi zonada tolesi ajratilmagan chigitni regenerasiya qilishni amalga oshirishni ta'minlovchi texnologik tizimga ega.




10. 13-rasm. ДВ-1М valikli jin sxemasi

- 1- ta'minlagich valiklari; 2- qoziqchali baraban; 3- to'rli yuza; 4- ifloslikni yo'naltiruvchi tarnov; 5, 15-tarnovlar; 6- ignali baraban; 7- kolosnikli panjara; 8- tekislovchi valik; 9- tezlash-tiruvchi valik; 10- ishchi baraban; 11- uruvchi baraban; 12- to'rli yuza; 13- qo'zg'almas pichoq dekasi bilan; 14- old koziryok; 15- tola tarnovi; 16- elektrovdvigatel; 17- ajralgan chigit tarnovi.

Jinning ta'minlagichi (14-rasm) ikkita yonlardan, ikkita qabul qiluvchi tishli valikdan, kolosnikli panjaralardan, tishli titish barabanidan, to'rli yuzadan, siqgichlar, tarnovlar va qoplamadan iborat.

Tishli ta'minlovchi valiklarning aylanishi o'zgarmas tok dvigateli bilan ponasimon tasma va chervyakli reduktor orqali amalga oshiriladi.


Ta'minlagich, metall buyumlarni ushlab qolish uchun doimiy magnit bilan ta'minlangan tarnovga ega.



10.14-rasm. 2ДВ jinning ta'minlagich – titgichi sxemasi


1- tishli ta'minlovchi valiklar; 2- kolosnikli panjara;
3- tishli qabul qiluvchi baraban; 4- to'rli yuza.

Ishchi barabanni pichoqga siqib turish mexanizmi (16-rasm) yo'naltiruvchilarda o'rnatilgan karetka yondorlariga qotirilgan ikki polzunni, vintli mexanizmni, oraliq valini, ikki bo'lak zanjirni o'z ichiga oladi.




10.15-rasm. Yumshoq uruvchi baraban yig'ma chizmasi:

1-tayanch podshipniklari(2 dona), 2-uruvchi bolg'achalar(92 dona).




10.16-rasm. Ishchi barabanni qo'zg'almas pichoqga siqib turish mexanizmi sxemasi

1- podshipnik korpusi; 2- yo'naltiruvchi; 3- yondor; 4- qopqoq; 5- val;
6- zanjir; 7- tros; 8- rolik; 9- korpus; 10- val-gayka; 11- vint;
12- baraban; 13-xrapovik; 14-sobachka; 15-fiksator; 16-stakan; 17-tayanch




17-rasm. ДВ valikli jinning ishchi valigi:

1-val, 2-qisuvchi gaykalar(2dona), 3-yon shaybalar(2dona), 4-charm o'miga ishlataladigan RKM disklari, 5-val bo'ylab qo'yiladigan 2ta shponka.



18-rasm. ДВ valikli jinning qo'zg'almas pichog'i yig'masi:

1-pichoq dekasi, 2-sozlash vinti, 3-tortish vinti, 4-deka teshigi, 5-pichoq ,
6-pichoq ustamasi, 7-plastinkali prujina.



10.19-rasm. DV-1M valikli jinning karetkasi:

a) seriyadagi namunasi, b) yaxshilangan namunasi.

1,8-yonlarni birlashtirgich, 2-yonliklar, 3-ishchi baraban, 4-ximoya ayvonchasi, 5-zichlovchi klapan, 6-uruvchibaraban(yumshok va qattiq uruvchi),
7-qo'zg'almas pichoq dekasi, 9-tola chiqish lotogi(navi yoki stolchasi).

Karetkaning qo'zg'almas pichoqlari 8 mm li elastik po'latdan, balandligi 115 mm qilib yasalgan. Pichoqning ishlatilgandan va ta'mirlashdan so'ng ruxsat etilgan balandligi 55 mm ga teng bo'lishi kerak.

Ishchi va uruvchi barabani DV-1M valikli jin bilan unifikasiyalashtirilgan. Uruvchi barabanning boshlang'ich diametri tashkil etuvchisi bo'yicha 150 mm, ta'mirlashdan keyin u 145 mm dan kam bo'lmasligi kerak.

Ishchi barabalar RKM2 yoki RKM4 karkaslik material alohida disklardan yig'ilgan bo'lib, boshlang'ich diametrлari 190 mm ni tashkil etadi. Ishchi material 15-40 tonnali quvvatdagi presslarda presslanadi. Charm o'rnini bosuvchilarni me'yoriy presslash kuchi 6-7 t.

Tokarli ishlov berilgandan so'ng maxsus freza bilan barabanlarda qadami 45 mm va chuqurligi 6-7 mm bo'lgan o'lik ariqchalari valning o'qiga nisbatan 30° burchakda ochiladi.

Ishlatilishi oqibatida baraban diametri 110 mm gacha kichrayishi mumkin.

Tola ajratich elektr uskunalarini boshqarish mashinaning o'zida o'rnatilgan uskunalar: ikki boshqaruv pulni ishchi organlarni harakatlantirish uchun to'rtta o'zgaruvchan tok dvigateli, ta'minlash valiklarini harakatlantirish uchun o'zgarmas tok dvigateli, shaxtadagi paxta sathini nazorat qilish qurilmasidan iborat.

ДВ-1М va 2ДВ valikli jinlarni texnik tavsifi

5-jadval

Ko'rsa TJichlar nomi	Mashinalar rusumi	
	ДВ-1М	2ДВ
1	2	3
Namligi 6,5-7% bo'lgan uzun tolali paxtanining birinchi navlarda ish unumadorligi, kg/s (kg/h)	0,028-0,033 (100-130)	0,083-0,08 (300-330)
Chigit shikastlanishining ko'payishi, %, dan (ko'p emas)	2	2
Tozalash samaradorligi, %:	45-50	45-50
I, II navlarda	50-60	55-60
III-Y navlarda	2	20
Chigitda tolali chigit miqdori, %, (ko'p emas)	0,07-0,14	0,07-0,14
Tolasi ajratilgan chigitning qoldiq toladorligi, g	10,5	21,85
O'rnatilgan quvvat, kW	7,5	15
Jumladan: ta'minlagich uchun	3,0	6,0
Ishchi barabanlar		0,85
Urvuchi barabanlar		
Ta'minlovchi valiklar	1670± 40	1900 ±100
O'lchamlari, mm: uzunligi	1840 ±40	2000± 100
kengligi	2025 ±40	2450 ±100
balandligi	1480	2900
Massasi, kg, (ko'p emas)	2826 ^{+1,36} _{-1,05}	23,10
Aylanish tezligi, r/s (r/min)	(270 ⁺¹³ ₋₁₀)	
Ishchi barabanni		
Urvuchi baraban:	32,97 (315)	(220)
Texnik paxtani ishlashda	26,38 (252)	23,10 (220)
urug'lik paxtani ishlashda	0,5-1,5	0,5-1,5
Texnologik tirkishlar, mm:	0,5-1,0	0,5-1,0
uruvchi barabani va pichoq uruvchi va ishchi baraban	0,5-2,0	0,5-2,0
uruvchi baraban va kozerok	13 ⁺² ₋₁	13 ⁺³ ₋₁
qoziqli baraban va to'rli yuza	13 ⁺² ₋₁	
ignali baraban ignalari va to'rli yuza	12 ⁺² ₋₁	
	190	190

uruvchi baraban va to'rli yuza	2 - 2,5	2 - 2,5
Ishchi baraban diametri, mm	42 ÷ 45	42÷45
O'lik ariqchasining eni, mm	150	150
Yondosh ariqchalar qadami, mm	8	8
Urvuchi baraban diametri, mm	(ko'zguli)	(ko'zguli)
kurakli qatorning soni		
Har qaysi keyingi qatorda	51± 2	51± 2
kurakning joylanishi		
Har qaysi qator kuraklarining og'ish burchagi, grad	22	22
Kuraklarning joylanishi shaxmat usulida to'rt qatorda, mm ga surilib	45	45
Qatorda kuraklar orasi, mm	280	420
O'rtacha ishlov muddati, h, (kam emas)	3	4
Birinchi kapital ta'mirlashgacha ishlash muddati, yil, (kam emas)	0,4	0,7
Ish qobiliyatini tiklashning o'rtacha muddati, h, (ko'p emas)		

10.2.2. Valikli jinlar ishchi barabonlarini yig'ishda ishlatiladigan materiallar tavsifi

Paxta tozalash sanoatida valikli jinlarning ishchi barabonlari disklari materiallari sifatida RKM2 va RKM4 charm o'rmini qoplovchi materiallar ishlatiladi.

1. Charm o'rmini qoplovchi RKM2 o'zida asosiy bog'lovchi sifatida oq rezina, ularni qotirib ushlab turgich sifatida esa turli texnik matolar ishlatiladigan kompozit materialidan iborat.

TU 17-40-427-80 texnik shartlarga asosan RKM2 charm almashtirgich disk, paxta tolali beltingli, kirza len-jut-kanop matosi va butadiEH nitril kauchuklar asosida maxsus rezina qorishmasi bilan galma-galdan qo'yilgan qavatlardan iborat, hujjatlar asosida tasdiqlab o'rnatilgan tartibda yig'ilgan ko'p qavatli plastinadan iborat.

2. RKM4 rusumli charm almashtirgichi RKM2 dan farqli ravishda len-jut-kanop matosi o'miga kerakli bo'lgan tola chiqindilari qo'llanilgan.

17-40-774-86 texnik shartlarga binoan RKM4 charm almashtirgichi matodan yasalgan disk paxta tolali ipdan to'qilgan kirzani uch qavatlisi, paxta tolesi chiqindilari va ishlab chiqarish chiqindilari bo'lgan tolalar bilan to'dirilgan butadien kauchuklar qorishmasini qavatlar orasida navbatma- navbat yopishtirishdan tashkil topgan plastinadan iborat.

Charm almashtirgich disklarining dastalariga 50 tadan yig'ilgan bo'ladi. To'rt dastasi valikli jin ishchi barabani uchun bir komplektni tashkil etadi.

Disklarning asosiy o'lchamlari 6-jadvalda ko'rsatilgan.

6-jadval

Ko'rsatkich nomlari	Qiymati	O'zgarish chegaralari
1. Disk diametri, mm	190,0	$\pm 2,0$
2. Ichki teshigining diametri, mm	60,0	$\pm 1,0$
3. Disk qalinligi, mm	5,7	$\pm 0,7$
4. Shponka pazining eni, mm	12,0	$\pm 1,0$
5. Shponka pazining balandligi, mm	6,0	$\pm 1,0$
6. Bir shponka pazidan ikkinchi shponka pazigacha bo'lgan masofa, mm	72,0	$\pm 1,5$

Qayta ishlanayotgan paxta nava qarab 1 tn tola ishlab chiqarish uchun sarflanadigan charm almashtirgichning nisbiy sarf me'yori, komplektda

7-jadval

Paxtaning sanoat navi	Material rusumi	
	RKM2	RKM4
I va II navlar uchun	0,059	0,05
III navga	0,15	0,13

Valikli jinlarning imkoniy nosozliklari, ularni sabablar va bartaraf qilish usullari

8-jadval

Nosozliklar	Sababi	Bartaraf qilish usullari	ESLATMA
1	2	3	4
1. Chigit belgilangan miqdordan yuqori tuk-dorlik bilan chiqadi.	Pichoqni baraban-keraklicha siqilmagan.	Pichoq prujinalari ko'tarilsin va pichoqning ishchi barabanlariga niSBatan holati tekshirilsin.	
2. Chigit sinadi.	Tirqishlar buzilgan a) uruvchi baraban va pichoq oralig'idagi; b) uruvchi va ishchi barabanlar orasidagi; v) uruvchi barabani va kozerok oralig'idagi; g) ignali baraban bilan	Tirqishlar o'rnatilsin a) 0,5 dan 1,5 mm gacha b) 0,5 dan 1,0 mm gacha v) 0,5 dan 1,4 mm gacha	1,5 mm dan ko'payishi sinishga 0,5 mm dan ozayishi ish intensivligi sabab 0,5 mm dan

	<p>to'rli yuza oralig'idagi; d) pichoq kerakligidan past joylashgan ye) ishchi barabanni yaroqsiz darajada ishdan chiqqan joylari bor (chuqur kanavkalar).</p> <p>j) pichoq qirrasining ba'zi joylari egilgan.</p>	<p>g) 15 ^{+2,0}_{-1,0} Pichoq ko'tarilsin ye) Ishdan chiqqan joy kesib olinsin, ishchi baraban qo'shimcha presslansin, chizmada ko'rsatilgandek ishlov berilsin. j) Pichoq to'g'rilansin.</p>	ozayishi klapani tekislashini yomonlashti radi
3. Paxtaning ta'minlagichdan bir tekis tushmasligi.	<p>A) Impulsli variator plastinkalari bir tekis yeyilmagan.</p> <p>B) Impulsli variator koromislosi bir tekis yedirilmagan.</p>	<p>Imulsli variator qismlarga ajratilib va ishdan chiqgan plastinkalari almash-tirilsin. Impulsli variatori nosoz koromislolari almashtirilsin.</p>	
4. Tola osiladi va tugunchalar hosil bo'ladi	<p>A) ishchi baraban keskin darajada yedirilgan. B) o'lik ariqcha devor-lari yoTJan. V) pichoq qirrasini ba'zi joylari egilgan.</p>	<p>2 punktdagi ishlar bajarilsin. o'lik ariqchalar tik-lansin. Pichoq qirrasi to'g'ri-lansin yoki almashtir-ilsin</p>	
5. Mashinaning ish unumdorligi keskin kamaygan.	<p>Tola ajratish uzelining ishi yo'ldan chiqqan.</p> <p>To'rli yuza tiqilgan</p>	<p>Pichoq qirrasi to'g'rilansin yoki u almashtirilsin. To'rli yuza tozalansin va 2 punkt amallari bajarilsin.</p>	
6. «Pusk» tugmasi bosilganda mashina-ning bironta DVigateli ishlamaydi.	<p>V1 uzgich yoki aBTomatik uzgich V2, V3 lar boshqarish shkafida o'chgan. To'sqichlardan biri zich yopilmagan. Shuning uchun yakuniy</p>	<p>O'chirgich kerakli o'rniga qo'yilsin. G'altak</p>	

7. Elektrodvigatellar ishlab turib o'chib qoladi.	<p>o'chirgichlardan biri uzilgan.</p> <p>V6 o'chirgich neytral holda.</p> <p>Magnit yurgizgichning g'altagi zararlangan, elektrodvigatelda zo'riqish bor.</p> <p>Issiqlik relesi ishlab ketgan.</p>	<p>almashtirilsin.</p> <p>Zo'riqish yo'qotilsin. Reledagi nosozliklar bartaraf qilinsin.</p>

Topshiriq va nazarot savollari.

1. 3ХДДМ tola ajratish uskunasining konstruksiyasi va ishlash jaroyonida ishdan chiquvchi qismlarini ayting?
2. 3ХДДМ tola ajratish uskunasining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklar.
3. 3ХДДМ tola ajratish uskunasining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklarni bartaraf etish usullari.
4. 4ДП-130 tola ajratish uskunasining ekspluatasiya davrida sodir bo'ladigan nosozliklarni bartaraf etish usullari.
5. 4ДП-130 tola ajratish uskunasining konstruksiyasi va ishlash jaroyonida ishdan chiquvchi qismlarini ayting?
6. Valikli tola ajratish uskunasining konstruksiyasi va ishlash jarayonida ishdan chiquvchi qismlari?
7. Valikli tola ajratish uskunasining ishlash jarayonida vujudga keladigan nosozliklar va ularni sozlash?
8. Valikli jinlarning ishchi valigini ta'mirlash va yig'ish jarayonlarini tushuntiring?
9. Valikli jinlardagi ishchi valigini ta'mirlash, yig'ish va sozlash jarayonlarini tushuntiring?
10. Valikli jinning qo'zgalmas pichog'ini yig'ish va sozlash jaroyonini tushuntiring?

11-bob. Tolali materiallarni tozalash uskunalarini ta'mirlash va sozlash

11.1. Tola tozalash jarayonining vazifalari, turlari va o'rni to'g'risida

Amaldagi standart O'zDSt 604-2001 talablariga javob bera oladigan paxta tołasi ishlab chiqarish uchun paxta tozalash korxonalarida paxtani qayta ishslash uzluksiz texnologik jarayoni tola tozalashni o'z ichiga oladi.


11.2. O'rta tolali navlarning tolasini tozalash uskunalarining tuzilishi, ishdan chiquvchi qismlari va ularni ta'mirlash yo'llari.

Tola tozalagichlar har qaysi jinga alohida bir yoki ikki qatorga bo'linishi mumkin. Tolani tozalash paxta tozalash korxonalarida asosan bir bosqichli tola tozalagichlarda amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtida paxta tozalash korxonalarida ko'p bosqichli tola tozalagich 1BП («Paxtakor 2»), bir bosqichli 1BПU va 3OBПU rusumli tola tozalagichlari qo'llanilmoqda.


To'g'ri oqimli tola tozalagich 1BП («Paxtakor 2») (2-rasm) konstruksiyasi va ishslash uslubi bo'yicha 3OBП-M individual tola tozalagichga o'xshaydi, to'g'ri oqimli, uch bosqichli va har biri 130 arrali tola ajraemichdan keyin o'rnatiladi.

Bir silindrli tola tozalagichlar hozirda uch silindrli tola tozalagichlar o'rniga, tola ajraemich quvurining ulanish joylarini saqlab qolgan holda o'rnatildi. 1BП tola tozalagichi yangi 1BПU rusumli (3-rasm) tola tozalagichlarga almashtirilmoqda.




11.1-rasm. Tola tozalagichlarning arrali silindri:

1-val, 2-tayanch sapsasi(ikki dona), 3,7-yon gaykalari (o'ngva chap), 4-qiya shaybalar(o'ng va chap), 5-arra disklari(231dona OBП-Ada), 6-qistirmalar, 8-podshipniklar, 9- qopqoq..




11.2-rasm. 1BPI («Paxtakor 2») tola tozalagich sxemasi

1- arrali silindr; 2- ajratich; 3- qabul qilish bo'g'izi; 4,6- tekis yo'naltirish cho'tkasi; 5- kolosnikli panjara; 7- jalyuzali panjara; 8 -chiqindilar kamerasi; 9- ustki qopqoq; 10- olib ketish bo'g'izi;
11- ajratich-pichoq.




11.3-rasm. 1BPIU tola tozalagich sxemasi


1- qabul qilish bo'g'izi; 2- tekis yo'naltirish cho'tkasi; 3- jalyuzali panjara;
4- chiqindilar kamerasi; 5- kolosnikli panjara; 6- arrali silindr; 7- pichoq; 8-olib ketish bo'g'izi.



11.4-rasm. Tola tozalagich kolosnigi:
1,3-o'ng va chap yonliklar, 2-kolosnik,




11.5-rasm. ЗОВП-А1 tolatozalagich kolosnikli panjarasi:
1,5-ungva chap yonliklar, 2,4-eksentrik tayanchlar, 3-kolosnik, 6- sozlovchi gaykalar, 7- prujina, 8-maxovikla.



6-rasm. 1BIM rusumli tola tozalagich

1-tolani olib ketuvchi gorlovina; 2-qabul qiluvchi gorlovina; 3-arrali silindr; 4-yopishtiruvchi chyotka; 5-qobirg'a panjarasi; 6-havo kiruvchi panjara; 7-chiqindi bo'limi; 8-yo'naltiruvchi sirt.



7-rasm. BIK rusumli tola tozalagich

1- turli baraban; 2- titkilovchi valik; 3- arrali silindr; 4-tushiruvchi valik;
5- yopishtiruvchi cho'tka; 6- qobirg'a panjarasi; 7-olib ketuvchi patrubok;
8- qaytargich; 9- chiqindi bo'limi; 10-kuzg'aluvchan sirt; 11- qo'zg'aluvchan dastakli
yo'naltirgich; 12-torgich; 13-chiqindi shnogi.

Tola tozalagichlarning texnik tavsifi

Ko'rsatgich nomi	Ko'rsatkich miqdori	
	1BIIU	1BII
Tola bo'yicha ish unumdorligi, kg/h	2000	2000
Tozalash samaradorligi, %		
birinchi navlarda	25-30	30-40
past navlarda	30-35	40-60
Chiqindilar toladorligi, %		
jumladan, erkin tola	25 gacha	30 gacha
Dvigatelning o'rmatilgan quvvati, kW	5,5	16,5
Arrali silindr diametri, mm	310	310
Aylanish tezligi, rad/s (r/min)		
arrali silindrni	151,76 (1450)	151,76 (1450)
<u>Arralar oralig'i qistirmasining diametri, mm:</u>		
birinchi arrali silindrni	190	190
ikkinchi arrali silindrni	-	250
uchinchi arrali silindrni	-	280
Qistirgichlar qalinligi, mm	6	6
Tola tozalagichga kiraverishda		
havo bosimi Pa yoki N/m ² (mm H ₂ O)	50-70(5-7)	50-70 (5-7)
Kondensordan oldingi havo siyrakligi Pa yoki N/m ² (mm H ₂ O)	300-400 (30-40)	300-400 (30-40)
<u>Ishchi organlar oralig'idagi</u>		
<u>tirqishlar va kengliklar, mm:</u>		
arra tishlari va kolosnik ishechi qirrasi orasidagi arrali silindr va uzish pichog'i orasidagi	3±0,5	3±0,5
kolosniklar ishchi qirralari orasi	3-5	3-5
cho'tka bilan kolosnikni ishchi qirrasi orasida tekis yo'naltirish cho'tkasi bilan arrali silindr orasida	45	45
	45	45
	2	2

2-jadval

11.2.1. Tola tozalagichlarda qo'llaniladigan dvigatellar, podshipniklar va tasmalar ro'yxati


Nomi va belgisi	Mashinaga to'g'ri keladigan
3ОВП tola tozalagich Elektr dvigatel 4AM100S4 Uz, R=3 kBT, p=1425 ayl/daq Podshipniklar 11311	3 6
1ВП tola tozalagichlar Elektr dvigatel 4AU2M4 Uz, R=15 kBT, p=1450 ayl/daq Podshipniklar 13514	3 6
2ВП tola tozalagichlar Elektr dvigatel 4AM16084UP Uz, R=15 kBT, p=1465 ayl/daq Podshipnik 13514 Podshipnik 206 Ponasimon tasma B-2000 t	1 6 2 6
30ВП-MU, 1ВПУ, 2ВПУ tola tozalagichlar Elektr DVigatel 4A112M4 Uz, R=3 kBT p=1450 ayl/daq	1

3-jadval

11.2.2. Tola tozalagichlardagi nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari

Nosozliklar va ularning tashqi ko'rinishi hamda qo'shimcha belgilari	Mumkin bo'lgan sabablari	Bartaraf etish usullari
Chiqindilarning toladorligi oshgan	Kolosniklar va arrali silindr orasidagi tirqishlar ko'paygan Pardali panjara kuraklarining sozligi bo'zilgan	Tirqishlarni sozlang Pardali panjara kuraklarining holatini sozlang
Tola tozaash samarasi past	Tola tozalagich chiqishida havo ortiq siyraklashishi Kolosnikli panjaralarga chiqindi to'lgan	Drossel yopgich yordamida kondensordan havo so'rishni kamaytirish Mashinani tuxtatib, tozalang

Tola tozalagich arrali silindr-larining tigelishi	Ajratich va arrali silindr orasi kengaygan Arra tishidan tolanning yomon tushishi Kondensorning tigelishi Arrali barabanlarning tezlik tartibi buzilgan	Tirqishni sozlang Arra tishlarining sifatini tekshiring Kondensorni tozalang Xarakatlantirgich tasmlari ning sirpanishini bartaraf qilish, shkiv-mufta va elektr dvigatel aylanishlari soni mosligini tekshiring
Tolanning yonib ketishi	Kolosniklar va arrali barabanlar orasidagi tirqishlarning torayishi Arrali barabanning qiyshiq shaybalarida shamolning yo'qligi Mashinaning ishchi qismiga metall buyum tushishi Val sapfalari sheykasida tola massasining o'ralishi	Mashinani tuxtating talab qilinadigan tirqish o'rnating Qiyshik shaybalarda shamolni tekshiring Mashinani tuxtating va buyumni olib tashlang Mashinani tuxtatib tozalang
Mashinaning tebranishi	Arrali barabanning balansi bo'zilgan Podshipniklar yoki tayanch romining poydevorga mahkamlanishi bo'shashgan Poydevorning yetarlicha mustahkam emasligi yoki ortiqcha mahkamlash	Mashinani tuxtatib, barabanni almashtiring Tekshiring va maxkamlang Poydevorni mustahkamlang
Xamma tola tozalagichlarning kuyindi kameralaridan tola bilan havo uchib chiqadi (momiqlashish)	Tola o'tkazgichda yetarlicha siyraklashmaslik	Jinlearning xavo kameralarida statik bosimni tekshirish, agar oshib ketsa, uni me'yoriy miqdorgacha kamaytirish. Kondensor katta barabanning turini kuvur o'tkazgich-lar va siklonlarni tozalang Suruvchi ventilyatorda qopqoqni ochish yordamida kondensordan xavo surishini ko'paytiring




11.8-rasm. ЗОВП-М tola tozalagichlari bilan ЗХДДМ jinlar pnevmotransport tiziminining chizmasi

4-jadval

